

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**

**TARIX TA'LIM YO'NALISHI  
«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI**

**«ABULG'OZI BAHODIRXONNING “SHAJARAI TURK” ASARIDA XIVA  
XONLIGI TARIXINING YORITILISHI»**

***MALAKAVIY BITIRUV ISHI***

Bajaruvchi: Muxiddinova Mavzuna

Ilmiy rahbar: Dosent, t.f.n.Nasrullayev M.I.

Malakaviy bitiruv ishi “O'zbekiston tarixi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil \_\_\_\_\_ majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №\_\_\_\_\_).

**Kafedra mudiri:**

**dots.R.Sh. Xoliqulov**

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2014 yil \_\_\_\_\_ iyundagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_ foizga baholandi (bayonnoma №\_\_\_\_\_)

**YADAK raisi:**

\_\_\_\_\_

**A'zolari:**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Samarqand-2014**

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-6</b>
<b>I. BOB Xorazm madaniyati tarixida Abulg’ozi Bahodirxonning tutgan o’rni.....</b>	<b>7-24</b>
1.1 «Shajarai turk» asari yaratilishi arafasidagi tarixiy sharoit... 7-10	
1.2 Xiva xonligi tarixi va uning fanda o’rganilishi .....	11-15
1.3 Abulg’ozixonning hayoti va ilmiy faoliyati .....	16-24
<b>II. BOB. «Shajarai turk» asarining yaratilishi va unda aks ettirilgan tarixiy voqealar .....</b>	<b>25-57</b>
2.1 «Shajarai turk» asarining yozilishi va o’rganilish tarixi.....	25-37
2.2 Asarda xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotining aks ettirilishi ...	38-45
2.3 «Shajarai turk» asarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot masalalari.....	46-57
<b>XULOSA.....</b>	<b>58-61</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....</b>	<b>62-66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asr o'zbek xalqi tarixida ro'y bergan eng muhim voqelik, shubhasiz, davlat mustaqilligiga erishish bo'ldi. Istiqlol sharofati bilan xalqning asriy orzusi ushalib, mustaqillik tufayli o'z e'tiqodi, urf-odatlari, qadriyatlarini o'z o'rniga qaytdi. Respublika taraqqiyotining o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyat va an'analarini hisobga olgan holda o'z rivojlanish yo'lini tanlashi, boy madaniyati va ma'naviyatini e'zozlash, xalq istiqboliga qaratilgan milliy istiqbol mafkurasini targ'ib etish, Vatan tarixini xolisona o'rganish va tadqiq etishni hayotiy zaruriyat darajasiga ko'tardi. O'z oldiga huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib olgan O'zbekistonning XXI asrdagi istiqbol siyosati – bu jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. Zero mazkur jamiyatni barpo etishda, davlat boshqaruvini to'g'ri, izchil yo'lga qo'yishda Vatanimizdagi tarixiy davlatlarning boshqaruvini o'rganish va uni amaliyotga tadbiiq etish lozim.

Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi, uning boshqaruv tizimi alohida o'rin tutadi. Yurtboshimiz I.A.Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida «tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilazasiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar Vatani, «Avesto»dek o'lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq – Xorazm zamini butun dunyoga ma'lum va mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan»,<sup>1</sup> deb Xorazm tarixiga bo'lgan bugungi kundagi munosabatni yaqqol ko'rsatib bergan.

O'tmishda ajdodlarimiz qoldirib ketgan tarixiy manbalarni bilish, ularning ilmiy merosini o'rganish bizning bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan hisoblanadi. Zero, har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. -Т.: “Ўзбекистон”, 2000. -Б.75.

belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi. Shunga asosan, vatanparvar va xalqparvar ajdodlarimizning ibratli hayoti, o'tmish tarixiy voqeligi to'la bayon qilingan asarlarni milliy istiqloq talablari asosida o'rganish muhim ahamiyatga ega. XVII asrda yashagan ana shunday bobokalonlarimizdan biri Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asari haqida mulohaza yuritish ekanmiz, albatta o'rta asrlar davri davlatchiligi, ulardagi ijtimoiy, iqtisodiy, hamda madaniy hayot, shuningdek davlat boshqaruvi siyosati kabilar haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ma'lumki, o'zbek xalqi uzoq davrlarga borib taqaladigan o'zining boy tarixiga ega. Ammo o'tmishimiz sarchashmalari haligacha yetarli o'rganilmagan. Ma'naviy tiklanish dolzarb masala hisoblangan bugungi kunda ajdodlarimiz durdonalarini tatqiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Xiva xonligi tarixini o'sha davrga oid manbalar («Shajarai turk») asosida o'rganish ham maqsadga muvofiqdir.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Xorazm tarixi bir qator sharqshunos va tarixshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. BMI mavzusini yoritish davomida Xorazm tarixi, Xiva xonligi tarixi, Abulg'ozixonning faoliyati va asarlarini o'rganishga doir asarlar hamda ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Jumladan, akademik olim S.P.Tolstovning «Qadimgi Xorazm»<sup>2</sup>, akademik olim Ya.G'ulomovning «Xorazmning sug'orilish tarixi»<sup>3</sup> asarlari bu boradagi eng muhim tadqiqotlar hisoblanadi. Shuningdek, V.V.Bartold<sup>4</sup> asarlarida Xorazm tarixida Xivaning o'rni yuzasidan muhim ma'lumotlar berilgan.

Mustaqillik yillarida ham Xorazm tarixini o'rganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. N.Polvonov va O.Qo'shjonov<sup>5</sup>, S.Hasanov<sup>6</sup>,

---

<sup>2</sup> Толстов С.П. Қадимги Хоразм. Т.:1964.

<sup>3</sup> Гуломов Я.Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.:1959.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинение.Ча. М.:1963.

<sup>5</sup> Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. Т.: 2007.

<sup>6</sup> Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. -Т.: 2001.

A.Abdurasulov<sup>7</sup>, D.Bobojonov va M.Abdurasulov<sup>8</sup>, Q.Munirov<sup>9</sup>ning asarlari, shuningdek ikki jildli «Xorazm tarixi»<sup>10</sup> kitoblari alohida ahamiyatga ega.

S.Hasanovning «Xorazm ma'naviyati darg'alari»nomli asarida esa Xorazmda yetishib chiqqan allomalar va ularning fan sohasiga qanday yangiliklar qo'shganligi yoritiladi.

Q.Munirovning «Xorazmda tarixnavislik» asarida Xiva xonligidagi faqat tarixiy asarlarga e'tibor qaratiladi. Muallif xonlikda tarix maktabiga xon Abulg'ozini asos solganini ham eslatib o'tadi.

Hududning XIX asr 3-yarmigacha bo'lgan tarixining barcha davrlari haqida ma'lumot beruvchi «Xorazm tarixi»<sup>11</sup> monografiyasini alohida takidlash lozim.

Tarixchi olim H.Xudoynazarovning Abulg'ozini Bahodirxon hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganishga doir tadqiqotlari ayniqsa diqqatga sazovor. Olimning «Abulg'ozini Bahodirxon tarixchi va adibi»<sup>12</sup>, shuningdek, «Shajarai turk» va uning o'rganilishi»<sup>13</sup> asarlarida Abulg'ozixonning ilmiy merosi, hamda uning Xiva xonligi tarixida qo'shgan hissasi haqida so'z yuritilgan.

Shuningdek, «Shajarai turk» asarining qiyosiy tahlili uchun bir qator manbalar ham o'rganildi. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»<sup>14</sup>, Gulbadanbeginning «Humoyunnoma»<sup>15</sup>, Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma»<sup>16</sup>, Munis hamda Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol»<sup>17</sup>, Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy»<sup>18</sup> asarlari shular jumlasidandir.

**BMIning maqsadi va vazifalari.** «Shajarai turk» asarini o'rganish natijasida Xiva xonligining XVI-XVII asrlar davridagi muhitni, jumladan:

---

<sup>7</sup> Абдурасулов А. Хива.-Т.: 1997.

<sup>8</sup> Бобожонов Д., Абдурасулов М. Фирдавсмонанд шахар. Хива, 2008.

<sup>9</sup> Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. Т.: 2002.

<sup>10</sup> Хоразм тарихи. Муаллифлар жамоаси. Урганч, 1997.

<sup>11</sup> Хоразм тарихи. Муаллифлар жамоаси. Урганч:1997.

<sup>12</sup> Худойназаров Ҳ. Абулғози Баходирхон тарихчи ва адиб. Т.: 1994.

<sup>13</sup> Худойназаров Ҳ. «Шажарай турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: 1993.

<sup>14</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: 2002.

<sup>15</sup> Гулбаданбегим. Хумоюннома. Т.: 1998.

<sup>16</sup> Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. Т.: 1966.

<sup>17</sup> Шермуҳаммад Мунис. Муҳаммадризо Огахий. Фирдавс ул-иқбол. Т.: 2010.

<sup>18</sup> Баёний. Шажарийи хоразмшоҳий. Т.: 1994.

- Xiva xonligi tarixi, uning tashkil topish va rivojlanish davrini manbalar («Shajarai turk») asosida o'rganish;
- Xonlikning inqirozga yuz tutishi sabablari va bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalarining yoritilishi;
- Xonlikning ijtimoiy-madaniy hayoti, Amudaryo o'zanining o'zgarishi va buning xalq hayotiga ta'sirining aks ettirilishi;
- Xonlarning ichki va tashqi siyosati, hamda qo'shni davlatlar bilan munosabatlarning yoritilishi masalalarini o'rganish;
- Bu davr tarixiy jarayonlarini ilmiy tadqiq etilishining bugungi kunda O'zbekiston tarixi fanining rivojlanishi va tarixiy bosqichlardagi o'rni va ahamiyati.

**BMIning obyekti va predmeti.**Abulg'ozir Bahodirxonning «Shajarai turk» asari ishning obyekti qilib olindi. Shuningdek, uning faoliyatini o'rganishga oid bo'lgan ishlar, asarlar hamda Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarlari qiyoslash uchun BMIga jalb etildi.

**BMIning nazariy va metodologik asoslari.** Tadqiqot olib borishning ilmiy usullari sifatida: tahlil, tizimli yondoshuv, umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka o'tish usulidan foydalaniladi.

**BMIning tuzilishi.** Mazkur BMI kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

## **1 bob. Xorazm madaniyati tarixida Abulg'ozi**

### **Bahodirxonning tutgan o'rni**

#### **1.1 «Shajarai turk» asari yaratilishi arafasidagi**

##### **tarixiy sharoit**

Xiva xonligi tarixini o'rganishda Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk»<sup>19</sup>, Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol»<sup>20</sup>, Ogahiyning «Riyoz ud-davla»<sup>21</sup>, «Zubdatu-t-tavorix»<sup>22</sup>, «Gulshani davlat»<sup>23</sup>, Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy»<sup>24</sup>, Mulla Xudoyberdi ibn Qo'shmhammadning «Dili g'aroyib» kabi asarlari asosiy manbalar hisoblanadi. Bu yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar o'z mazmuni, keltirilgan ma'lumotlarning ko'pligi va ishonarliligi bilan alohida o'rinni egallaydi. Bu tarixchilar bir-birlarining ishlarini davom ettirib, Xiva xonligi hududida XVI asrdan XX asr boshlarigacha yuz bergan voqealarni o'z ichiga oluvchi asarlarni yozib qoldirganlar. Bu asarlarning ko'pchiligi Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asari ta'sirida yozilgan bo'lib, undagi tarixnavislik an'analari davom ettirdi. Shu ma'noda, Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asarini «Shajarai turk»ning davomi sifatida qarash mumkin. Bu ikki asar bir butun holda Xiva xonligi tarixini o'rganishda katta muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sha davr Xorazm madaniyati, urf-odati, badiiy tilini o'rganishda asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

Abulg'ozi o'z davrining iste'dodli adibi sifatida o'zidan avval yashab ijod etgan salafaridan ibrat va madad olganidek, uning asarlari ham o'zidan keyingi san'atkorlar uchun dasturulamal bo'ldi. Muallif an'analari ayniqsa, Munis va Ogahiyga barakali ta'sir ko'rsatdi. Ular Abulg'ozining tarixnavislik an'analari qabul qilib, yanada rivojlantirdilar. XIX asrda Shermuhammad

---

<sup>19</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992.

<sup>20</sup> Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огахий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент: «Ўқитувчи», 2010. – 381б.

<sup>21</sup> Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. V жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1978.

<sup>22</sup> Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. VI жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980.

<sup>23</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Зубдату-т-таворих. Т.: «Ўзбекистон», 2009.

<sup>24</sup> Баёний. Шажарайи хоразмшохий. Тошкент: 1994.

Munis tomonidan boshlanib, Muhammadrizo Ogahiy yozib tamomlagan «Firdavs ul-iqbol» shubhasiz Abulg'ozixon asarlarining ta'siri ostida va undan foydalanib yozilgan tarixiy asar bo'ldi. Bu mualliflar o'zlarigacha bo'lgan tarixiy davrni yoritishda ko'p o'rinda Abul'g'ozining asarlariga murojaat qilganlar va asosiy manba sifatida tayanganlar.

Bu davrda Xivada adabiy muhitning kamol topishi va yuksaklikka ko'tarilishida ikki nozikqalb san'atkor — Munis va Ogahiyning roli juda katta bo'ldi. Ular Xiva adabiy maktabida o'lmas oqimni vujudga keltirdilar va izdoshlariga tuganmas meros qoldirdilar<sup>25</sup>.

Shermuhammad mirob Avazbiy o'g'li — Munis (1778 — 1829 yillar) ota-bobolari kasb-hunari bo'yicha miroblik qilgan. Xonlikda suv taqsimoti, yerlarni o'zlashtirish, ariqlar qazish, suv inshootlari qurilishiga shaxsan boshchilik qilgan. Munis tarixda «mirob» sifatida emas, shoir tarixchi nomi bilan mangu muhrlanib qoldi. U xonlik tarixini yozishga kirishar ekan, har bir davr kishilari va el-ulus hayoti, milliy an'analar, bunyodkorlik ishlarini to'la tarzda, o'qimishli yozishga, voqelikni aniq va xolis tasvirlashga, har qanday bo'rttirishlar, ortiqcha ulug'lashlardan holi qilishga urindi. 1802 yilda Muhammad Rahimxon I topshirig'iga ko'ra xonlik tarixini yozishga kirishadi va «Firdavs ul-iqbol» (Baxt bog'i) nomi bilan ulkan solnomani yaratadi. Solnomaning bir qismini (u besh bobdan iborat bo'lib tarixiy- xronologik tartibda yozilgan) Munis, qolgan qismini uning jiyani, shoir - muarrix Muhammad Rizo mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy bitishgan. Tog'a jiyani shoirlar va tarixchilarning qalamiga mansub nafis g'azallar o'zbek mumtoz she'riyatining o'lmas merosidan o'rin olgan. Ikki ulkan shoir ijodi haqida juda ko'plab risolalar yozilgan, devonlari qayta-qayta chop qilingan.

Ogahiy (1809-74 yillarda) Xivada yashab ijod etgan. Munis xon amriga ko'ra «Firdavs ul-iqbol»ning boshlamasini, toki xonlik tarixining 1812

---

<sup>25</sup> Абдурасулов А. Хива. -Т.: 1997.-Б. 94.



yilgacha bo'lgan davrini qog'ozga tushirdi. Ogahiy zimmasiga esa shu ulkan ishning eng mas'uliyatli va og'ir qismi tushdi<sup>26</sup>.

Ogahiy 1844 yilda «Riyoziy ud-davla» asarini yaratdi. Unda Olloqulixon hukmronligi (1825-42) davrida xonlikda ro'y bergan voqealar tafsiloti tasvirlangan. Undan keyingi xon Rahimqulixon (1842-46) davrini aks ettirgan «Zubdatu-t-tavorix» asari, Muhammad Aminxon (1846-55) xonligi davrining solnomasi bo'lmish «Jome' ul voqeati Sultoniyy»<sup>27</sup> asarini, Said Muhammadxon (1856-63) davri tarixi hisoblanmish «Gulshan ud-davlat» asarlarini yozdi. Umrining so'nggi yillarida esa Muhammad Rahimxon II xonligining ilk davri haqida «Shohidi iqbol» asarini yoza boshlagan. Munis va Ogahiy yaratgan solnomalarning qadr-qimmatini ulug' olimlar juda yuqori baholashadi. O'rta Osiyo tarixining bilimdoni, sharqshunos akademik V.V.Bartold bu asarlar haqida fikr yuritib: «Munis va Ogahiy asarlarining qanchalik kamchiligi bo'lmasin, ular o'zining daliliy materiallari, bayon qilinish uslubi izchilligi bilan bizgacha yetib kelgan Buxoro va Qo'qon xonliklari haqidagi tarixiy asarlardan ustun turadi»<sup>28</sup> – deb ta'kidlagan edi.

Abulg'ozixon boshlab bergan tarixnavislik maktabini Munis va Ogahiy o'ziga xos oqimga aylantirdi. Bu esa, Xivada yana bir ulkan solnomachini dunyoga keltirdi. Bu Muhammad Yusuf Bobobek o'g'li Bayoniydir. U xonlik tarixini davom qildirib, «Shajarai Xorazmshohiy» nomli yirik asarini yaratdi.

Ogahiydan so'ng davom qildirilmagan solnomachilikni to'ldirish maqsadida 1911-yilda Asfandiyorxon Bayoniyga shunday topshiriq beradi: «Xonlik tarixi juda sodda tilda yozilsinki, uni o'qigan besh yashar bolaga ham tushunikli bo'lsin!» Bayoniy Xivaning 1872-1912 yillardagi tarixini o'z ichiga olgan asarini 1914 yilda tugalladi. Solnomachi voqealarni bayon qilarkan, o'zi guvoh bo'lgan, eshitgan, to'plagan manbalarga suyandi, shuningdek, rus bosqinchilarining shu davrdagi Xivaga yurishi bayoni, uning

---

<sup>26</sup> Абдурасулов А. Хива. -Т.: 1997.-Б. 95.

<sup>27</sup> Мухаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980.

<sup>28</sup> Бартольд В.В. Сочинение. Том II. Часть I. М.: 1963. – 617б.

voqealariga oid asarlaridan ham foydalandi. Qo'lyozma, asosan, 16 bobdan iborat bo'lib, Asfandiyorxon davri (1910-18) bilan yakunlanadi. Bayoniy asardagi voqealarning haqqoniyligiga kafolat berib, quyidagicha yozadi: «Tarix kitobi yozishning bir sharti bor: Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik qilmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon qilishi shart. Agar rostlik ila bayon qilmasa uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi»<sup>29</sup>.

Bayoniy asariga tarixchilar katta baho berib, voqealar tadriji, izchilligi, daliliy materiallarning ko'pligi jihatidan hatto Ogahiy va Munis solnomalaridan ham qimmatliroq ekanligini ta'kidlashgan.

1920 yilgi xonlikdagi voqealar, inqilob shiori ostida ro'y bergan siyosiy o'zgarishlardan so'ng Bayoniy asarini qayta tahrir etdi va uni «Xorazm tarixi» deb atadi. Qayta tahrir payti muarrix uni ortiqcha maqtovu-hashamlar, har bir bobda hukmdor sha'niga o'qiladigan hamdu-sanolardan tozaladi va voqeliklarga hukmdorlar hayotni tark etganlaridan so'ng qayta bir ko'z tashlashga jazm etdi. Asar ana shu jihatdan bebahodir<sup>30</sup>.

Shunday qilib, Abulg'ozixon asarlari bilan o'ziga xos tarzda boshlangan Xiva tarixnavislik maktabi undan keyingi davrlarda yashagan tarixnavislar Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan rivojlantirildi. Bu tarixchi olimlar Abulg'ozining ilg'or an'analarini davom ettirib, yangi tarix asarlarini yaratdilar.

---

<sup>29</sup>Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. -Т.: 1994. – 496.

<sup>30</sup> Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Т.: «Фан», 1960. – 506.

## **1.2 Xiva xonligi tarixi va uning fanda o'rganilishi**

1510 yilda Shayboniyxon vafotidan so'ng Xorazm hududi Eron shohi Ismoil tomonidan bo'ysundirildi. 1510-1512 yillarda Xorazmni Eron shohining noiblari idora qildilar. Ammo, 1512 yilda Xorazm hududlarida eroniylarga qarshi xalq xarakatlari boshlandi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Ko'xna Urganchdan 60 km uzoqlik da joylashgan bu shaharni XV asrda uzbek xonlardan bo'lgan Mustafaxon barpo etgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Xazorasp shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qo'shinlarini qirib tashladilar. 1512 yilda Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan Shayx Ota avlodlari ko'chmanchi o'zbeklarning Berka sulton avlodidan bo'lgan Elbarsxonga maktub yo'llab, uni Xorazm taxtiga taklif qildilar. Elbarsxon taxtga o'tirgach, eroniylarni mamlakat hududlaridan butunlay haydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat hududlarini hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Saraxs viloyati, Mang'ishloq, Abulxon, Durun hisobiga ancha kengaytirdi. Ammo, o'zbek sultonlari va shahzodalar o'rtasida siyosiy birlik yo'q edi. Tez orada ular o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Ushbu kurashlardan foydalangan Buxoro hukmdori shayboniy Ubaydullaxon 1537 - 1538 yillarda, qisqa muddat Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi. Biroq, Ubaydullaxonning xukumronligi uzoqqa cho'zilmadi. Ubaydullaxon zulmiga chiday olmagan xorazmliklar Anushaxonning vorislari boshchiligida buxoroliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Ubaydullaxon 1538 yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Xazorasp bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shayboniylardan ozod bo'lgan Xorazmda endi ichki kurashlar avj olib ketdi. Shuningdek, Urganch, Kat, Yangi shahar, Xiva, Xazorasp kabi shaharlar va viloyatlar hukmdorlarining markazdan qochuvchi xarakatlari

kuchayib, ular amalda o'zlarini mustaqil hisoblar edilar. Ayrim shaharlar bir vaqtning o'zida ikkita hukmdor tomonidan (mas., Xivada Po'lat Sulton va Temir Sulton) boshqarildi. O'zaro kurashlar ayniqsa Elbarsxon va Anushaxon avlodlari o'rtasida kuchayib ketdi. XVI asrda Abdulg'oziy ma'lumotlariga ko'ra, bunday kurashlar natijasida qisqa muddatga hokimiyatdan o'nlab xonlar almashganlar. Natijada markaziy hokimiyat deyarli inqirozga uchragan edi. O'zaro kurashlar va siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishiga sabab bo'lgan edi<sup>31</sup>.

XVI asrning ikkinchi yarmida Xojimxon (Xoji Muhammadxon, 1558-1593/1598-1602 yy.) hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga biroz barxam berilib tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Sug'orish va dexqonchilik, hunarmandchilik va savdo sotiq ishlariga jiddiy e'tibor qaratilib tashqi savdo xamda munosabatlar rivoj topdi. Xojimxon hukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga ko'chiriladi (ayrim manbalarda XVI asrning 70-yillarida, ayrimlarda esa 90-yillarda). Bunga asosiy sabab Amudaryo o'zanining o'zgarib Kasbiy dengizga oqmay qo'yishi natijasida (Urganch va Xivaning poytaxtga aylanganligi sanasi to'g'risida - 1556 y, 1598 y, 1602- 1621 yy., 1611-1611 yy., 1610-1612 yy., 1557-1603 yy. kabi fikrlar mavjud) uning atroflaridagi suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchidan, Xivaning bu davrda siyosiy va iqtisodiy mavqeyi ancha kuchayib, asosiy savdo markaziga aylanishi yana bir sabab edi. Poytaxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng davlat ham Xiva xonligi deb atala boshlandi<sup>32</sup>.

Bu orada Buxoro hukmdori Abdullaxon II Shayboniylar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'lib Xorazm xududlarini yana Shayboniylar tasarrufiga olish uchun harakat boshladi. Chunonchi, bir necha yurishlardan so'ng 1593 yilda Xorazm yana Shayboniylar qo'lga o'tdi. Abdullaxondan mag'lubiyatga uchragan Xojimxon Xivani tashlab bir

---

<sup>31</sup> Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т.: «Янги аср авлоди», 2012.

<sup>32</sup> Рахманова Ю. Общественно-политическая жизнь города Хивы в XVI- начале XX века. Авт.-т. Канд. Ист. Наук. Т.: 2009.

guruh navkarlari bilan Eronga qochdi va shoh Abbos saroyidan panohtopdi. 1598 yilda Abdullaxon II vafot etganidan so'ng Hojimxon shoh Abbosdan ruxsat olib Xorazmga qaytdi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o'ziga olib Xiva bilan Katni Arab Muxammadxonga, Hazorasni Isfandiyor Sultonga berdi. 1600 yilda Xojimxon Urganch va Vazir qal'alari boshqaruvini Turkiyadan kelgan o'g'illariga topshirib, o'zi Xivada kichik o'g'li Arab Muxammadxon bilan qoladi. 1601 yilda Hojimxon 83 yoshida vafot etgach, taxtga uning o'g'li Arab Muxammadxon (1602-1623 yy.) o'tirdi<sup>33</sup>.

Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toju-taxt uchun kurashlar davom etdi. Xususan, 1605 yilda nayman urug'i vakillari Elbarsxon avlodiga mansub Xusrav Sultonni taxtga o'tkazishni rejalashtiradilar. Ammo, bu fitna oshkor bo'lib, Xusrav Sulton qatl ettiriladi. Oradan ikki yil o'tgach, uyg'ur oksoqollarining maslahati bilan Solix Sulton taxtga davogar bo'ladi, bu isyon xam bostirilib, Solih Sulton o'ldirildi.

1616 yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o'g'illari xam qo'shildilar. Isfandiyor Hazorasda, Abulg'oziy Sulton Katda, Habash bilan Elbars sultonlar Vazir va Urganch hokimlari etib tayinlangan edilar. Xon farzandlarining xar biri taxtga davogar edi. Ayniqsa Habash sulton bilan Elbars sultonlarning harakatlari keskin edi. Ota - bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib oxir-oqibatda qonli urushga aylandi. 1621 yilda Toshli Yorilish arig'i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muxammadxon va uning o'g'illari Habash hamda Elbars sulton qo'shinlari o'rtasida jang bo'ldi. Isfandiyor va Abdulg'oziy sultonlar otasi tomondan turib kurashgan bo'lsalarda, bu jangda Arab Muxammadxon yengildi. Arab Muxammadxon avval ko'zlari ko'r qilinib Xivaga jo'natildi. 1623 yilda esa Qum qa'lasi yaqinida Arab Muxammadxon xotinlari, yosh o'g'illari va ikkita nabirasi bilan o'g'illari

---

<sup>33</sup> Ўзбекистон тарихи. I қисм. Т. 2002. – 2116.

Xabash va Elbars sulton tomonidan o'ldirildi. Isfandiyor Eronga (garchi unga Makkaga borishga ruxsat bergan bo'lsa-da), Abdulg'oziy esa Buxoroga qochib, jon saqladilar.

1623 yilda otasining qatl etirilganligini eshitgan Isfandiyorxon Durun shahri, Abdulxon tog'laridan, turkmanlarning taka, yovmut, sariq urug'laridan qo'shin to'plab Urganchga yurish boshladi. Urganch yaqinida Isfandiyorxon va Habash - Elbars qo'shinlari o'rtasida 23 kun davom etgan jangda birlashgan aka - ukalar qo'shinlari Isfandiyor qo'shini tomonidan tor-mor etildi. Elbars qo'lga olinib qatl etildi. Habash Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlardan najot so'radi. Ammo, u bu yerdan boshpana topolmadi va navkarlari bilan qo'lga olinib, Isfandiyorxonga topshirildi hamda ularning barchasi qatl etildi.

1623-1643 yillar davomida Xiva xonligi taxtini Isfandiyorxon boshqardi. O'zining yigirma yillik davlat boshqaruvini Isfandiyorxon turkman qabila boshliqlariga tayanib olib bordi. Xonlikning yuqori lavozimlariga turkmanlar tayinlanib, ularga katta imtiyozlar berildi. Natijada o'zbek urug'larning Isfandiyorxon siyosatiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Isfandiyorxon taxtga o'tirgan yiliyoq nayman urug'larini qirg'inbarot qildi. Xonlikdagi o'zbek urug'lari uch bo'lakka bo'linib, biri - Mang'it, biri - Qozoqlar yurti va yana biri Movarounnaxrga ko'chib ketdi. Oradan ko'p o'tmasdan o'z yurtiga qaytib kelgan o'zbeklar Isfandiyorxon tomonidan qilichdan o'tkazildi.

Isfandiyorxon xonligi davrida xam Xorazmda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilmadi. Toju-taxt uchun kurashlar ilgarigi davrlardagidek davom etdi. Xonlikdagi siyosiy hokimiyatni turkmanlar qo'lga berib qo'ygan Isfandiyorxondan norozi bo'lgan kuchlar uni taxtdan chetlatish rejalarini tuzdilar. Bu kuchlarga xonning ukasi Abulg'oziy boshchilik qildi. Shuningdek, Amudaryoning Orolga qo'yilish joyida (Orol bo'yi)da istiqomat qilgan o'zbeklar (bu yerda o'zbek qo'ng'irotlari katta siyosiy mavqega ega edilar)ning xonlikning siyosiy hayotiga ta'siri kuchayib

bordi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, 1643 yilda Orol bo'yi o'zbeklari Abulg'ozni sultonni (1643-1663 yy.) xon qilib ko'tardilar. Xorazm davlatchiligi tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida mashhur bo'lgan Abulg'ozixonning hayot yo'li og'ir kechgan. Abdulg'ozixon otasi Arab Muxammad taxtdan ketgach o'zi taxtga o'tirgunga qadar uzok yillar (yigirma yildan ko'iroq) muxojirlikda yashashga majbur bo'lgan edi. U dastlab Buxoro hukmdori Imomqulixon himoyasida, keyinroq esa, ikki yilga yaqin qozoq sultoni Eshimxon saroyida yashagan. Shundan so'ng Toshkentga kelib bu yerda ikki yil yashadi. Toshkentdan Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abulg'ozini Isfandiyorxon bosqinchilikda ayblab xibsga oladi va Isfaxon shahriga Eron shoxi huzuriga badarg'a qiladi. Isfaxon yaqinidagi Taborak qal'asida o'n yil asirlikda yashagan Abulg'ozni 1639 yilda o'z nazoratchilari yordamida bandilikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng u bir yilga yaqin Xurosonning Mohin qishlog'ida, ikki yilga yaqin Mang'ishloq turkmanlari orasida yashaydi. Keyin uni qalmaq xoni o'z o'rdasiga taklif etadi. Bu yerda Abulg'ozni bir yilga yaqin yashagach qalmaq xoni to'plab bergan katta kuch bilan 1643 yilda Urganchga qaytib, Orol bo'yi o'zbeklari yordamida Xiva taxtiga o'tiradi.

Abulg'ozixon hali o'zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o'g'li Anushaxon (1663-1687 yy)ga topshirdi va oradan olti oy o'tib vafot etdi. Anushaxon Xiva xonligi mavqei va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo'ldi. Anushaxonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga bo'lgan munosabat o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi hamda uning atroflariga ko'chib kelishiga ruhsat berdi<sup>34</sup>.

---

<sup>34</sup> Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т.: «Янги аср авлоди», 2012.

### 1.3 Abulg'ozixonning hayoti va ilmiy faoliyati

XVII asrda yashab ijod qilgan Xiva xoni Abulg'ozzi Bahodirxon oliy nasab, taxt-toj sohibi, o'z sulolasining shonu shuhrati uchun kurash olib borgan, ayni chog'da parchalanib ketayotgan xonlikni kuchli markazlashgan davlatga aylantirish uchun ham qurol bilan, ham qalam bilan kurash olib borib, nisbiy osoyishtalik o'rnatishdek ezgu niyatni amalga oshirishga intilgan feodal hukmdor xam edi. Shuningdek, Abulg'ozixon Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyotining o'tkir bilimdoni, ilm-fanga e'tiqod qo'ygan, nodir me'moriy yodgorliklarning yaratilishida bevosita homiylik qilgan ma'rifatparvar davlat arbobi va olim adib hamdir.

Abulg'ozixon 1603 yil 15-avgustda (h. 1014 yil) Urganchda dunyoga kelgan. U Xiva xoni Arab Muhammadxon (hukmronligi 1602-1623)ning to'rtinchi o'g'li edi. Abulg'ozixon tug'ilishidan 40 kun oldin Arabmuhammad Ural qozoqlari bilan bo'lgan urushda g'alaba qozongan edi. Shu sababli u o'g'luga Abulg'oziy deb nom beradi. Bundan tashqari uning onasi g'oziylar avlodidan bo'lib, naslu-nasabi Chingizxonga borib taqalgan. Abulg'oziy 6 yoshga kirganda onasi vafot etadi. U 16 yoshga kirguncha Urganchda otasi qo'lida tarbiyalanadi. U o'zining tavalludi haqida «Shajarayi turk» asarida shunday yozadi: «Urganch viloyatinda tarix ming taqi o'n to'rtida topushqan yili va asad burji va rabi'-ul-avval oyining o'n beshida dushanba kuni oftob birlan barobar tulu' qilibmiz»<sup>35</sup>.

Arab Muhammadxonning Asfandiyorxon, Habash sulton, Elbars sulton, Abulg'oziyxon, Sharif Muhammad sulton, Xorazmshoh sulton, Avg'on sulton nomli yetti o'g'li bo'lgan<sup>36</sup>. Mazkur yetti o'g'il Arab Muhammadxonning bir necha xotinidan dunyoga kelgan farzandlari edilar. Abulg'oziyning yozishicha: «Asfandiyorxonning onasi o'z jamoatimizdan erdi. Habash va Elbarsning onasi Nayman qizi bo'lib, bir onadin erdi. Sharif Muhammad sulton birlan Xorazmshoh

---

<sup>35</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1676.

<sup>36</sup> Ўша асар, 1606.



sulton ikkisining onasi Xoja Mavdud Chishtiy avlodidin erdi. Avg'on sultonning onasi Abulxayrxon avlodindin erdi»<sup>37</sup>.

Abulg'ozi Bahodirxon o'z otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammadxon madrasasida tahsil oldi. Arabmuhammadxon o'g'lining o'qishi va dunyoviy ishlarni o'rganishiga alohida e'tibor bergan. Aka va ukalari o'rtasida o'ta zeharli va qobiliyatli bo'lgan Abulg'ozi o'z zamonasining bilimdonlari qo'lida tahsil ko'rgach, tarix faniga ixlos va ishtiyoq qo'yadi. Xalq og'zaki ijodini mehr qo'yib o'rganishi tufayli uning ijodkorligi yoshlikdan ortib boradi. Bularning barchasi uning yirik davlat arbobi, o'z davrining ilg'or siymosi, ijodkori bo'lib yetishuviga yordam bergan omillardir.

Abulg'ozi otasi va aka-ukalari qatori feodal urushlarda bahodirlarcha jang qilgani uchun uni Bahodirxon deb atay boshlaganlar<sup>38</sup>. Abulg'ozixon yoshlikdan turli fanlarni o'rganish, harbiy ta'lim olish bilan mashg'ul bo'ladi. O'n olti yoshidan boshlab esa, davlat ishlariga aralasha boshlaydi. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: «... Olti yoshqa yetkanda onamiz haq rahmatiga ketdi. To o'n olti yoshqacha Urganchda ota qo'lida bo'lduk. Andin so'ng otamiz katxudoy qildi. Taqi Urganjning yarmini ulug' og'amiz Xabash sultonga va yarmini bizga berdi. Bir yildan so'ng Xabash va Elbars otli og'alarimiz birlan oramizda nizo bo'ldi. Ul sababdin tura bilmay Xevaqq'a otamiz qatig'a kelduk... Avval bahor erdi. Katga borib olti oy turg'andin so'ng otamiz birlan o'tlanib, Xabash, Elbars ustiga borduq»<sup>39</sup>.

Abulg'ozixon Xiva xonligida og'ir siyosiy vaziyat yuzaga kelgan bir davrda yashadi. U bolalik va o'smirlik yillaridan boshlab uzoq va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi saltanat uchun olib borilgan ayovsiz kurashlarning guvohi bo'lib o'sdi. Ba'zan bu kurashlarning urug' va elatlar o'rtasida

---

<sup>37</sup> Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркской рукописей Института народов Азии. Т.1. М.: 1965. -С. 93.

<sup>38</sup> Худойназаров Х. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: «Ўқитувчи», 1993. – 346.

<sup>39</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 168б.

fitnachilikka qirgin keltiruvchi dahshatli bosqinlarga aylanib ketganligini ko'rdi va o'zi ham ko'pincha ularda ishtirok etdi.

Abulg'oziy avvalo katta akasi Habash sulton bilan Urganchda hokim bo'lib turadi. Keyinchalik o'rtalarida nizo paydo bo'lgandan so'ng Habash bilan birga Urganchda tura olmagan Abulg'oziy Xivaga otasi Arab Muhammadxon huzuriga keladi. Bu yerga kelgandan keyin Arab Muhammadxon Abulg'oziyni Katga hokim qilib tayinlaydi. Habash va Elbars sultonlar Arabmuhammadxonning qarshiligiga qaramay bir necha marta Eron va Buxoroga hujum uyushtiradilar. Abulg'oziy Katda hokim bo'lib turganda otasi Arab Muhammadxondan o'z askarlari bilan uning huzuriga kelishga farmon oladi. Arab Muhammadxon, Abulg'oziy, Asfandiyor va Sharif Muhammadlar Habash va Elbars ustiga yurish qiladilar. Yurish haqida «Shajarayi turk» shunday yozadi: «Bizning xon to'p bo'ldilar. Asfandiyorxonni so'l va faqirni o'ng qilib erdilar. Faqir uch ot yiqilguncha urushtum. Barcha xalqdin so'ng ketdim»<sup>40</sup>. Bu yurishda Arab Muhammadxon yengiladi, qo'lga tushadi va ko'zi ko'r qilinadi. Ming mashaqqatlar bilan suvdan kechib o'tgan Abulg'oziy avvalo Katga va u yerdan Imomqulixon oldiga keladi. Asfandiyor, Sharif Muhammad va Xorazmshohlar Xazorasp qal'asiga kirib bekinadilar. Habash qal'ani 40 kun qamal qiladi va nihoyat sulh tuziladi. Asfandiyorga Makkaga haj uchun Eronga jo'nashga ruhsat etiladi. Abulg'oziyning yozishicha, Imomqulixon saroyida turgan Abulg'oziyga akasi Asfandiyor xat yozib, Habash va Elbarsga qarshi boshlagan kurashda yordamlashishni so'ragan. Ammo Imomqulixon uning borishiga ruxsat bermagan. Abulg'oziy Imomqulixon saroyida ikki yil turadi.

Ma'lum kurashdan so'ng Habash va Elbars ustidan g'alaba qilgan Asfandiyorxon Imomqulixon saroyiga o'z inilari Abulg'oziy va Sharif Muhammadni so'ratib kishi yuboradi. Shundan keyingina Imomqulixon ularga Xorazmga qaytishga ruxsat beradi. So'ngra Abulg'oziy Xivaga qaytadi va Asfandiyor uni Urganchga hokim qilib tayinlaydi. Endi Asfandiyor bilan Abulg'oziy o'rtasida kelishmovchiliklar maydonga kelgan edi. Lekin shu ahvolda

---

<sup>40</sup> Ўша асап, 1686.

bir qancha vaqt Abulg'oziy ukasi Sharif Muhammad bilan Urganchda hokim bo'lib turadilar.

Urganchda turishning ilojini topa olmagan Abulg'oziy Turkiston hokimi Eshimxon huzurida uch oy turadi. So'ngra Abulg'oziy Toshkentga keladi va Toshkentda ikki yil turadi. Shundan keyin Abulg'oziy Imomqulixon oldiga keladi. Keyinchalik Abulg'oziy Xivaga qaytadi. U Xivaga kelgandan ikki oy o'tgandan keyin Sharif Muhammad Hazoraspga — Asfandiyor huzuriga boradi<sup>41</sup>.

Abulg'oziy bilan Asfandiyor va Sharif Muhammad o'rtasida yana kurash boshlanadi. Bir necha bor yurishlardan so'ng Abulg'oziyni yenga olmagan Asfandiyor Abulg'oziyni hiyla bilan qo'lga tushiradi va o'ziga ishonchli bo'lgan 20 kishi bilan uni Eronga Obivardga jo'natadi. Ular Abulg'oziyni olib borib Obivard hokimiga topshiradilar. Obivard hokimi Abulg'oziyni Xurosonning beglar begiga topshiradi. U Abulg'oziyni Iroqqa yuboradi.

Shu vaqtda Shoh Abbos o'lib, nabirasi Shoh Safo taxtga o'ltirgan edi. Abulg'oziy uni Hamadonda ziyorat qiladi. Shoh Safo Abulg'oziyni Isfaxonga yuboradi. Unga u yerda uy-joy tayin qiladi va xarajat uchun yiliga 10000 tanga ajratadi. Abulg'oziy nazorat ostida saqlanadi.

Shunday qilib, Abulg'oziy Isfaxon shahrida 10 yil turadi. So'ngra u yerdan o'z yurtiga qaytishga harakat qiladi. Bir qancha tadbirlar ishlatib, u yerdan chiqib olishga muvaffaq bo'ladi. Bu masala uning «Shajarayi turk» asarida batafsil yoritilgan. Isfaxondan chiqib Bastomga kelganda qo'lga tushishiga sal qoladi. Har xil hiylalar ishlatib, bu mojarodan qutulgan Abulg'oziy o'z hamrohlari bilan Xurosonning Mahin degan qishlog'iga keladi. U yerda bahorgacha turadi.

Bahor bo'lgandan so'ng Abulxon borib, u yerda ikki yil yashaydi. Undan so'ng Manqishloqqa boradi va u yerda bir yil turadi. So'ngra Urganchga keladi. Abulg'oziy (1052) 1642 — 1643 yili Urganchga kelgan edi. U Xorazmga qaytgandan olti oydan so'ng Asfandiyorxon vafot etadi. 1644 -1645 (1054) yili Asfandiyorxon o'lgandan bir yil o'tgandan keyin Amudaryoning dengizga quyar

---

<sup>41</sup> Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. -Т.: 2002. -Б.26.

yerida yashayotgan xalq Abulg'ozini xon qilib ko'taradilar. Bundan ikki yil burun inisi Sharif Muhammad ham vafot etgan edi.

Orolda xon qilib ko'tarilgan Abulg'oziy bir qancha kurashdan so'ng 1644 – 1645-yili Xiva taxtini egallaydi va 1663-1664 yilgacha Xivada xonlik qiladi. Shundan so'ng xonlik taxtini o'g'li Anushaga topshiradi va 1664 yili vafot etadi.

Abulg'ozixon hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik taxtida o'tirdi. Lekin umri ko'proq urushlarda o'tdi: 1646 - 1653 yillari u Tajan, Bomi baurma (Qizil arvotning janubiy-sharqiy tarafida joylashgan manzilgoh), Atrok va Jurjon turkmanlari bilan urush olib bordi, 1655 - 1662 yillari o'lkaga vaqt-vaqti bilan boqin qilib turgan Yoyiq (Ural)lik rus qozoqlari, qalmiqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurash olib bordi, 1663 - 1664 yillari bir necha marta Buxoro ustiga yurish qiladi.

Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi<sup>42</sup>. Jumladan, 1657-yilda Buxoro va Karmanaga qilingan omadli yurishdan qaytgach, yurtga katta to'y berdi va xaloyiq oldida o'z o'g'lining xizmatlarini qadrlab, unga tug', lashkar, bayroq va nog'ora hamda Hazorasni tuhfa etdi. Shuningdek bu g'alaba sharafiga yangi Oqmasjid qurdi. Oqmasjid qadimiy san'at uslubida qurilgan. Bu masjid Polvon Darvoza yonida joylashgan. Oqmasjid pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning yonida pishiq g'ishtdan qurilgan hammom xarobalari hozirgacha saqlanadi<sup>43</sup>. Anushaxon sharafiga qurilgan bu hammom ham Abulg'ozixon o'z o'g'liga qilgan marhamatlaridan bittasidir. Shuningdek, u umrining oxirida hali o'lmay turib taxtni Anushaxonga topshirdi. Bu ishni Abulg'ozixonidan boshqa Xorazmda hukmronlik qilgan hukmdorlar qilishmagan. Shundan keyin xon uzlatga chekinib bir qator tarixiy asarlar yaratdi<sup>44</sup>.

Abulg'ozini Bahodirxon ijtimoiy-siyosiy hamda ijodiy faoliyati bilan bugungi yoshlarga yaxshi ma'lum bo'lmasa-da, u ulkan tarixiy shaxsdir.

---

<sup>42</sup>Худойназаров Х. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 66.

<sup>43</sup> Худойназаров Х. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: 1993. – 216.

<sup>44</sup> G'afforov Sh.S. va b. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. Samarqand: 2011. – 173b.

Sababi – O’rta Osiyoda davlat va madaniyat rivojlanishida yuz bergan qariyb ikki asrlik inqirozdan keyingi uyg’onish Abulg’ozining ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyati bilan boshlanadi. Ma’rifatparvar va bilimdon Amir Temur vujudga keltirgan sharoitda buyuk shoir Alisher Navoiy boshliq ulkan allomalar maydonga kelgani kabi Abulg’ozixonon keyingi davrdagi Xorazmda ham yuksak madaniyat va ilmu irfon tomon rivojlanish ko’zga tashlanadi<sup>45</sup>. Akademik olim Bo’riboy Ahmedovning so’zi bilan aytganda u «tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podsholar o’tmadi, lekin allaqachonlar ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday bo’ldi u. Darhaqiqat, Abulg’ozixon keng va chuqur ma’lumotli kishi edi»<sup>46</sup>. U hukmdor sifatida bekliklar o’rtasidagi o’zaro qirg’in urushlarga xotima beruvchi tadbirlar o’tkazish bilan birga, ijodkor sifatida «Shajarai turk»<sup>47</sup>, «Shajarai tarokima»<sup>48</sup> va «Manofe’ ul-inson»<sup>49</sup> («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozdi.

Abulg’ozixonning birinchi tarixiy asari «Shajarayi tarokima» deb nomlanib, o’g’uz qabilalarning, xususan turkman xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Abulg’ozi uni yozilishi haqida asarda batafsil ma’lumot beradi. 1644-yilda, ya’ni Abulg’ozixon hokimiyatni endigina egallagan davrda turkmanlar Mang’ishloq, Bolxon va Tajan daryosi atroflarida yashar edilar. Abulg’ozixon o’z hokimiyatini mustahkamlash va turkmanlarni o’ziga tobe qilish maqsadida ular ustiga ko’p martalab qo’shin tortdi. Muallifning yozishicha, « Bir karat Xurosonda Durunga taalluq Beurma tegan suvning yaqosinda bizning birlan saf tortib urushtilar. Avoldin to oxirgacha biz sababli yigirma ming choqlik kishilati o’ldi. Aning ichinda gunohkorlari ham bor erdi va begunohlari ham bor

---

<sup>45</sup> Худойназаров Х. Абулғози Баходирхон тарихчи ва адиб. Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 116.

<sup>46</sup> Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 2176.

<sup>47</sup> Абулғози Баходирхон. Шажараи турк. Ўзбекистан Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фонди, инв. № 7668.

<sup>48</sup> Шажараи тарокима. Ўша жойда, инв. Уз 1223.

<sup>49</sup> Манофеъ-ул-инсон. Ўша жойда, инв. № 4017.

erdi»<sup>50</sup>. Abulg'oziy o'z bosqinchilik urushlari tufayli yigima mingdan ortiq turkmanlarning halok bo'lishiga sabab bo'lgani uchun o'zini ular oldida qarzdor deb bilgan, hamda turkmanlar iltimosini bajonidil qabul qilgan. Muallif aytishiga qaraganda, «Shajarayi tarokima» turkman oqsoqollari va ulug' boshliqlarning taklifiga ko'ra oddiy turk kishisi tushunadigan, hatto besh yashar turk o'g'loni ham anglaydigan tilda yozilgan. Asarda Odam ato avlodlari, Muhammad (s.a.v) alayhissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslanadi, Nuh payg'ambarning Xom, Som, Yofas hamda Yofasning o'g'li Turk haqida hikoya qiladi, turk, mo'g'ul xalqlari tarixi so'zlanadi, Qoraxon o'g'li O'g'uzxon faoliyati haqida to'xtaladi, butun o'g'uz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larining bir-biri bilan bog'langan nuqtalari, tarixiy-etnogenezini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o'tilgan. «Shajarayi tarokima» asari Abulg'oziy Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilganligi ta'kidlangan. Bu ma'lumotga qaraganda, 1660—1661 yillar orasida ijod qilingan. «Shajarayi tarokima» yozma obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlar bayon etilgan, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilishi ta'kidlangan<sup>51</sup>. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958 yili A.N.Kononov (1906 - 1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan<sup>52</sup>. Mazkur asardan dunyo xazinalarida bizga ma'lum yettita nusxasi saqlangan. Ulardan

---

<sup>50</sup> Абулғози Баходирхон. Шажарай тарокима. Самарқанд: 1995. – 126.

<sup>51</sup> Абулғози Баходирхон. Шажарайи тарокима. Самарқанд: 2005.

<sup>52</sup> Каранг: Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. – С. 39-42; Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Гази, хана хивинского. -М.-Л., 1958. – С. 20-27; Собрание, I, 72, №171; Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т., 1889. – С. 52. – № 801. (г); Туманский А.Г. Абуль-Гази-Бохадурхан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажарайи Тарокима. -Истанбул. 1937; Кононов А.Н. Родословная туркмен. (текст, перевод, комментарии и исследование). М. - Л., 1958. Самойлович А.Н. По поводу издания Н. П. Остроумовым «Светоч ислама» // ЗВОРАО, XVIII. – С. 2-4; Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. – С. 36. – Сочинения. Т. II. Ч.1. – С. 584-594; МИТТ. II. – С. 28-38.

ikkitasi Rossiyada<sup>53</sup> va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Abulg'ozixonning ikkinchi asari «Shajarayi turk» nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI - XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi<sup>54</sup>. «Shajarayi turk» tarixning turli masalalariga (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik va h.) oid e'tiborga molik ma'lumotlarga boy asardir.

Abulg'ozir Bahodirxon faqat tarixiy asarlar yozish bilan cheklanmadi. Tabobatga oid «Manofe ul-inson» (Inson uchun foydali tadbirlar) nomli asar ham ijod etdi. Asar taxminan 1657-yilda yozilgan. Muallif Allohning o'ziga bergan qobiliyatlari qatorida tabobat va tabiblik sirlarini o'rganganligini yozmasada, u insonlarning kasalliklari va ularni davolash usullarini yaxshi bilganligi yaqqol sezilib turadi. Kitob to'rt qism va 21 bobdan iborat. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 4107-raqami bilan saqlanadi. Asarida tibbiyotning 120 ga yaqin soxalarida kasallikni davolash va emlash usulini bayon etgan. Avval turli oddiy dorilar, keyin murakkab dorilar, ularni tayyorlash va qo'llash yo'llari, undan keying qismlarda davolash usullari va davolashga doir mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, asarda muallif o'z salaflarining bu sohaga doir fikrlari haqida bahs yuritgan. Jumladan, revmatizm, teri va asab xastaliklari, umumrtqa pog'onasi, qo'l va oyok bug'imlarida tuz yig'ilishi xastaliklarini davolashda

---

<sup>53</sup>Россиядаги нухалари тавсифига қаранг: Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. / Род ред. А.Н. Кононова. -МОСКВА:Наука. 1965. – С. 92-94.

<sup>54</sup> Абулғозийнинг ушбу асаридан 11 нухаси Тошкентда (ЎзФАШИ) ва олти нухаси Санкт-Петербургда сақланади. Қаралсин: СВР. История. – С. 154-155; Ахмедов Б. Историко-географическая литература. – С. 72-78; Шу муаллиф.Тарихдан сабоқлар. – Б. 217-223; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. – С. 93-94; Яна қаранг: Лекции И.Н.Березина, записанные студентом В. Игнатъевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд III, опись 1. – № 31. В «Ученых записках ИВ АН СССР». VI, 1953. – С. 41 ва кейингилари (№29); Яна асарнинг бошқа нухалари ҳақида қаранг: Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd. VI. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin. 1889. В. 228. №204; Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. London. 1888. 282a; Blochet E. Catalogue des manuscrits turcs de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. №141; Таржималари: Desmaisons P. Aboul-Ghâzi Bêhâdour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares..., St.-Pbg. I, 1871 (матни). II. 1874 (таржима); Абулгази. Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казань) 1770; Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С. Саблукова. Казань, 1906.

tabiiy kuyosh nuri, maxalliy kum, tuz va suv konlaridan foydalangan. U yurt ozodalik obodonchiligini, xalq sog'ligini saklashni birinchi masala sifatida karagan.

Abulg'ozixon o'z zamonasining davlat arbobi, atoqli tarixnavisi va olimi edi. Uning quyidagi so'zlarini keltirsak, uning qanday shaxs ekanligini yana ochiqroq tasavvur etamiz. «Bu faqirg'a Xudoyi taolo inoyat qilib ko'b nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiygarlikning qonuni va yo'sinikim, nechuk otlanmoq va yurumak va yovg'a yosoq yasamoq, ko'p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq. Ikkinchi, masnaviyot va qasoyid va g'azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindan to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshoxdarning otlari va umrlarining va saltanatlarning kam va ziyodin bilmaklik. Bu vaqtda fahmlamaklikda va tarix bilmaklikda faqirdek kishi shoyad Iroqda va Hindustonda bo'lsa bo'lg'ay, yo'q aytsam yolg'on bo'lg'ay. Ammo sipohiyning yo'sunin bilmaklikda, bu choqda musulmon va kofirda biz ko'rib va eshitaturg'on yerlarda va yurtlarda yo'q turar. Yer yuzi keng turur, eshitmagan yerlarimizda bo'lsa ajab ermas<sup>55</sup>». Bu keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Abulg'oziy she'riyatni yaxshi tushunish bilan bir qatorda, arab, fors va turkiy tillarni ham yaxshi bilgan. Tarix ilmidan yaxshi xabardor bo'lgan Abulg'oziy yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarlarni tasnif etgan. Abulg'oziyning hayoti va faoliyati haqida gapirar ekanmiz, bu masala yuzasidan, birinchi navbatda, uning mazkur asarlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Chunki o'zi tasnif etgan asarlarida tarjimai holiga oid anchagina ma'lumotlarni keltiradi. Ayniqsa, «Shajarayi turk» asarida o'z hayotiga va siyosiy faoliyatiga ancha batafsil to'xtab o'tadi. Abulg'oziy haqida biografik ma'lumotlar K.Yusupovning dissertasiya ishida (Abulgazi I Xivinskoye xanstvo v pervoy polovine XVII veka) va A.Yu.Yakubovskiyning «Очерки по истории Туркменского народа и Туркменистана VIII — XIX вв. (216 — 233с.) nomli asarida ham keltirilgan»<sup>56</sup>.

---

<sup>55</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1676.

<sup>55</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. -М.: 1948: По следам древнехорезмийской цивилизации. -М., Л.: 1948.-456.

<sup>55</sup> Худойназаров Х. «Шажарайи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: 1994.



## **II BOB. «Shajarai turk» asarining yaratilishi va unda aks ettirilgan tarixiy voqealar**

### **2.1 «Shajarai turk» asari, uning yozilish tarixi, o'rganilishi**

Abulg'ozixonning ikkinchi – yirik asari «Shajarayi turk» nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Asar Xorazm tarixining XVI-XVII asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy tarixini bayon etishda nodir manbadir<sup>57</sup>. Abulg'ozi kelgusi avlodlarga tuhfa qilib qoldirajak asarini yaratishga kirishar ekan, uydirma va soxtaliklarga yo'l qo'ymaslikka, tarixdan chetga chiqmaslikka harakat qiladi. Abulg'ozi Bahodirxon mazkur asarni bitishda forsiy va turkiy tillarda yozilgan o'n sakkizta manbaga tayanadi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: «Eron birlan Turonda o'tgan Chingizxon o'g'illarining otlarini aytilgan tarixlardan ushbu zamon faqirning oldinda o'n sakkiz mujollik hozir turar». Abulg'ozi o'z ona tilini yaxshi bilganidek fors-tojik, shunishdek, mo'g'ul tillarini ham puxta egallagan edi. U o'z asarlarini ona tilida yozgan. Abulg'ozi Bahodirxon: «Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsin deb, turk tili bilan aytdim. Bir kalima chig'atoy turkiydan, forsiydan va arabiydan qo'shmayman, ravshan bo'lsin deb, turkiyni ham andoq aytibmanki, besh yashar o'g'lon tushunur»,— deb yozadi.

Abulg'ozining asarlari Sharq tarixchi va olimlarinigina emas, balki rus va

---

<sup>57</sup>Абулғозийнинг ушбу асаридан 11 нусхаси Тошкентда (Ўз ФА ШИ) ва олти нусхаси Санкт-Петербургда сақланади. Қаралсин: СВР. История. – С. 154-155; Ахмедов Б. Историко-географическая литература. – С. 72-78; Шу муаллиф.Тарихдан сабоқлар. – Б. 217-223; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. – С. 93-94; Яна қаранг: Лекции И.Н. Березина, записанные студентом В. Игнатьевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд III, опись 1. – № 31. В «Ученых записках ИВ АН СССР». VI, 1953. – С. 41 ва кейингилари (№29); Яна асрнинг бошқа нусхалари ҳақида қаранг: Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd. VI. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin. 1889. В. 228. №204; Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. London. 1888. 282a; Blochet E. Catalogue des manuscrits turcs de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. №141; Таржималари: Desmaisons P. Aboul-Ghâzi Bêhâdour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares..., St.-Pbg. I, 1871 (матни). II. 1874 (таржима); Абулгази. Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казань) 1770; Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С. Саблукова. Казань, 1906. Ўзбек тилидаги нашрлари:

boshqa chet el olimlarining ham diqqat etiborini o'ziga torta boshladi. Jumladan, rus tarixiy adabiyotlarida xorijiy tillardan tarjima qilingan asarlar qatoriga 1770-yildan «Shajarayi turk» asari ham qo'shildi. Muallifning «Shajarai turk» asari 1825-yilda Qozonda Rumyansev, 1854-yilda G.S.Sablukov, 1871-yilda P.I.Demizonlar tomonidan, «Shajarai tarokima» asari esa 1898 va 1966-yillarda bir necha marotaba rus tilida nashr etildi. «Shajarayi turk»ning rus tiliga tarjimasini Rossiya oliy o'quv zotlarida Sharq xalqlari tarixi va tilini o'qitish ishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Masalan, Qozon Davlat dorilfununining professori I.N.Berezin turkiy xalqlar tarixini o'qitishda Abulg'ozining asarlariga ham tayangan: «Turk xrestomatiyasi» nomli kitobi va dorilfunun talabalariga o'qigan ma'ruzalarida «Shajarayi turk» tayanch manbai bo'lib xizmat qilganligini olimning o'zi ta'kidlaydi.

Abulg'ozining «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlariga ular xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Munis va Ogahiyning «Firdavs-ul-iqbol»<sup>58</sup> asarida S.P.Tolstov «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab»<sup>59</sup> nomli kitobida, Ya.G'.G'ulomov «Xorazmning sug'orilish tarixi»<sup>60</sup>, Bayoniy esa «Shajarai Xorazmshohiy» kitobida nihoyatda yaxshi fikrlar bildirganlar. Shuningdek, P.P.Ivanov va A.K.Borovkovlar «XVI-XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida mulohazalar» nomli asarida, B.V.Lunin «O'rta Osiyo tarixidan ocherklar»<sup>61</sup> risolasida, M.I.Yo'ldoshev «Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi»<sup>62</sup> asarida, B. V. Bartold «Madaniy hayot tarixi», Q.Munirov «Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari»<sup>63</sup>, B.A.Ahmedov «Ko'chmanchi o'zbeklar davlati»<sup>64</sup> kabi asarlarida ham Abulg'ozini Bahodirxonning ijodiga yuqori baho berganlar.

G'arbiy Yevropada esa asar nemis, ingliz, fransuz tillarida, hatto Amerikada ham tarjima qilinib nashr ettirildi. Yevropa bu asar bilan o'tgan

---

<sup>58</sup> Шермухаммад Мунис. Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол. Т.:2010. – 382б.

<sup>59</sup> С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т.:1964. -437б.

<sup>60</sup> Я.Г'.Гуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.:1959. -323б.

<sup>61</sup> Лунин Б.В. Очерки по истории Средней Азии. М.: 1958.

<sup>62</sup> Йўлдошев М.И. Хива хонлигида ер эгаллиги ва давлат тузилиши.

<sup>63</sup> Муниров Қ. Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Т.: ЎзФА нашр., 1960.

<sup>64</sup> Аҳмедов Б. Кўчманчи ўзбеклар давлати.

asrning ikkinchi choragida tanishdi. Poltav yaqinidagi g'alabadan so'ng Sibirga jo'natilgan shved ofiserlari Tobolskda Abulg'ozixonning qo'lyozmasi va uning mundariyasi bilan tanishgach bu asar tarjimasini ustida ishlay boshladilar. Bu ilmiy tadqiqotning asosiy tashabbuskori Filipp Ioann Tabbert Shtralenberg edi. Rus tilini yaxshi bilgan buxorolik oxund Abulg'ozixon asarining tarjimasini rus yozuvchisiga bayon qilgan. O'z navbatida shved Shenstrem rus tilidagi tarjimadan foydalanib asarni nemis tiligf tarjima qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu tarjima 1780-yilda "Abulgasi Bahadur Chan'S Geschlecht buchder Mungalischen Chanen, auseiner turkischen Handschrift udersetzt von Dr.D.G.Messerschmid, 1780" Messershmidt tahriri ostida chop etilgan. Asar nemis tiliga tarjima qilinishidan oldin fransuz tilida 1726-yil Bryusselda «Histoire genealogique des Tatars, traduite du manuscrit tartare d'Abulgasi – Bahadur – Chan, et enrichie d'un grand nombre de remarques et tres curieusus sur le veritable estat present de l'Asie septentrionale, aves cartes geographiques necessaries. ParD.» nomi ostida nashr qilingan. Bu nashrga Bendik tomonidan izoh qilingan. Ushbu fransuz tilidagi tarjima o'z navbatida asarning ingliz tilidagi tarjimasini (1780) uchun ham asos bo'lib xizmat qildi. Rus olimi Trediakovskiy asarni fransuz tilidan rus tiliga «Родословная история о татарах, переведенная на французкий язык с рукописныя татарской книги, сочинения Абулгачи-Баядур-Хана... а с французкого на Российской в Академии наук» (1770) nomi bilan ikki tomda nashr qildiriladi.

Rus olimi G.Sablukovning qayd etishicha, asarning barcha tarjimalarini ham ishonchli deb bo'lmaydi. Chunki ularning hech biri biror bir tarixiy muammoni aniq yoritib bera olmaydi. Abulg'ozixon asarining tilini bilgan olimlar ham bilmaganlari ham asarni qoniqarliroq tarjima qilishga harakat qilganlar. Asar matnidagi iboralarning aniqroq tushuntirilishi hamda tarixiy bilimlarning manbalar asosida to'ldirilish maqsadidan kansler graf N.P.Rumyansev Abulg'ozixon

asarining nashri uchun mablag' ajratdi va asar Qozon universiteti tipografiyasida chop etildi<sup>65</sup>.

Vengriya fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, mashhur sharqshunos olim G.Vamberi 1863 yilda Tehrondan chiqib Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i bo'ylab sayohat qiladi. Ana shu sayohat davomida Abulg'ozining «Shajarai turk» kitobini qo'lga kiritadi va u bilan mukammal tanishadi. Kitob sharqshunos olimga kuchli ta'sir etadi. Shu boisdan ham u «Shajarai turk» asariga yuksak baho bergan edi. «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» (1865) nomli kitobida Abulg'ozining ijodi bilan 1870 yillardan boshlab qiziqib kelgan P.N.Demezov 1871-1874 yillar orasida «Shajarai turk»ni fransuz tiliga tarjima qiladi. «Shajarai turk» tarjimasi unga katta shuhrat keltiradi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asari o'tmishda Sharq tarixchilari, rus va G'arbiy Yevropa sharqshunoslarining e'tiboriga sazovor bo'lgan noyob asarlardan bo'lib kelgan. U qariyb uch asrdan buyon turkiy xalqlar tarixi bo'yicha qimmatli manba sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlarining tarixshunoslik fanida tutgan o'rni va ahamiyati haqida bir qator ilmiy tekshirish ishlari olib borildi. 1938 yilda yaratilgan «XVI—XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida munozaralar» hamda 1958-yilda nashr etilgan «O'rta Osiyo tarixidan ocherklar» nomli kitoblar Abulg'ozining tarixchilik faoliyati to'g'risida ham bahs yuritgan asarlardandir. «Abulg'ozining asarlari yana shuning uchun ham muhimki, mazkur muallifdan ilgari bunday asarlar yaratilmagan edi, shuningdek, ular vujudga kelgan va keyingi XVIII—XIX asrlar uchun ham xarakterli bo'lib qolavergan Xiva — turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro na Eron bilan o'zaro aloqalarinn tushunish uchun juda boy material beradi»<sup>66</sup>.

---

<sup>65</sup> Абұл — Гази — Багадур — Хан. Родословное древо тюрок. Москва — Ташкент — Бишкек: 1996. — 6-9с.

<sup>66</sup>И в а н о в П.П. Очерки по истории Средней Азии. М.: 1958.- 316.

«Abulg’ozi Bahodirxon o’zining muarrixligi bilan mo’g’ul, turk tarixchilari orasida shuhrat qozonganva shu bilan bir vaqtda Xiva hukmroni (1643-1663) bo’lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillarida ham tarjima qilingandir»<sup>67</sup>,— deb yozadi olim A.Semenov. Ayniqsa, O’zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlari tarixini yorituvchi tarixshunoslar Abulg’oziy asarlariga tayanch manbai sifatida murojaat qilganlar<sup>68</sup>.

Abulg’ozi Bahodirxonniig faoliyati va tarixiy merosi K.Yusupov tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti qilib olingan. U 1950-yilda «XVII asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Abulg’ozi» mavzuida nomzodlik ishini yozib, himoya qildi.

Shuningdek, akademik Ya.G’ulomov «Xorazmning sug’orilish tarixi» nomli monografiyasini yaratishda Abulg’ozi asarlariga ko’p murojaat qiladi. «Yangi Urganch barpo etish, Urganch kanalini qurish, Gurlandan shimolda Vazir istehkomini solish kabi tadbirlar xon Abulg’ozi davrida tugatiladi. Shunday qilib, uning davrida chap qirg’oq Xorazmning janubiy yerlarini ikkinchi marta o’zlashtirish boshlangan. Xorazmning bu ma’rifatli hukmroni o’z ota-bobolarining ko’chmanchilik odatlaridan voz kechib, shahar va dehqonchilik vohasining madaniyatini o’zlashtirdi. G’ozobod kanali va undagi istehkom (G’ozovot) ham Abulg’ozi nomi bilan bog’langandir»<sup>69</sup>.

Akademik M.I.Yo’ldoshev Xorazmdagi urug’larning tarkibi va tuzilishini o’rganishda Abulg’ozixonning tadbirkorligini bayon etib: «Abulg’ozixon tomonidan ko’rilgan tadbirlar to’g’risida Shermuhammad Munis asarida keltirilgan ma’lumotlar ham urug’larniig tarkibi va tuzilishini o’rganish uchun diqqatga sazovordir»<sup>70</sup>,— degan edi.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab Abulg’ozi asarlari tilshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmokda. Bir qancha atoqli turkshunoslar o’zbek

---

<sup>67</sup>Семенов А. А. Собрание Восточных рукописей ,том I. Т.: 1952, 72- б.

<sup>68</sup> Худойназаров Х. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.:1993. -86.

<sup>69</sup>Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. Т.: 1959. – 303б.

<sup>70</sup>ЙўлдошевМ.И. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тuzилиши. Т.:1959. - 81б.

adabiy tili tarixiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy ishlarida Abulg'ozini asarlaridan unumli foydalanganlar.

1957-yilning 4—11 iyun kunlarida Toshkentda o'tkazilgan Butunittifoq sharqshunoslarining birinchi ilmiy-nazariy konferensiyasida «Xivalik Abulg'ozixon asarlari — o'zbek adabiyoti va tilining yodgorligi sifatida» degan mavzuda ma'ruza qilingan. Ma'ruzada Abulg'ozixon adabiy merosini to'plash, tizimlashtirish va ular ustida har tomonlama, chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor berildi. 1958 yilda esa, A.N.Kononov tomonidan Abulg'ozining «Shajarai tarokima» asari rus tiliga tarjima qilinib, tanqidiy matni nashr etildi. Bu asarga tarjimon qisqacha so'z boshi yozgan.

A.M.Shcherbakning 1959-yilda Moskvadagi Sharq adabiyoti nashriyatida «O'g'uznoma va muhabbatnoma» nomli kitobi bosilib chiqadi. Bu kitob qadimgi uyg'ur va eski o'zbek yozuvlari yodgorliklariga bag'ishlangan bo'lib, unda O'g'uznoma munosabati bilan Abulg'ozining «Shajarai turk» asariga ham anchagina o'rin ajratilgan. Bu ikki asar tadqiqotchi tomonidan taqqoslanadi va ulardan ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi. A.M.Shcherbak O'g'uzxonning afsonaviy tarixini yorituvchi qo'lyozmalarning turli xil variantlarni bir-biriga qiyoslab ko'rib, shular orasidagi eng ko'p tarqalgani, ahamiyatlisi va qadimgisi Abulg'ozining «Shajarai turk»da keltirilgan varianti, degan xulosaga keladi. U uyg'ur varianti bilan «Shajarai turk»dagi ayrim detallarni, ya'ni yoy va oltin o'qlarni qo'llash o'rinlarini qiyoslash orqali ham Abulg'ozining qo'lida bizgacha yetib kelmagan «O'g'uznoma»ning qadimiyroq nusxasi bo'lgan, deb hukm chiqaradi. Ba'zi bir tarixchilarning Abulg'ozixon O'g'uzxon haqidagi dalillarni Rashididdinning «Jome at-tavorix» asaridan olgan degan bir tomonlama fikrlariga qarshi chiqib, olim bunday deb yozadi: «Umuman, Abulg'ozining qo'lida O'g'uz haqida bizgacha yetib kelmagan ishonchli, qadimiy nusxaning bo'lishi haqiqatdir... Rashididdinning «Jome at-tavorix»idan o'zlashtirilgan bir qancha faktlarni Abulg'ozini Eronda bo'lgan

vaqtida boshqa fors yozuvchilarining tarixiy xronikalaridan ham o'qib o'rgangan. Darvoqe, Rizo Nurning «Abulg'ozini O'g'uz haqidagi afsonani butunicha Rashididdindan O'zlashtirgan» degan asosli emas. Abulg'ozining O'g'uz haqidagi bayoniga va umumant «Shajarai turk»ka til nuqtai nazaridan turli xil belgilarning aralash ishlatilishi xarakterli xususiyatdir. G'arbiy va janubiy til qatlamlarining mavjudligi hamda muallifning ijtimoiy kelib chiqishi uning Xiva shevasiga yaqinligidan dalolat beradi. «Ug'uznoma va muhabbatnoma» nomli kitobda «Ug'uznoma variantlari», «O'g'uznomaning mazmuni haqida», «Afsonaning tili va yozilgan joyi», «Afsonaning tili va qadimgi o'zbek qarluq-uyg'ur tillarining o'zaro aloqadorlik muammosi» nomli bo'limlarda ham Abulg'ozining «Shajarai turk» asari tiliga oid qimmatli mulohazalar bayon etilgan.

Taniqli turkshunos S.I.Ivanov Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asari bo'yicha ko'p yillar davomida tadqiqot ishi olib borib, samarali mehnatining mahsuli sifatida «Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asari («Rodoslovnoye drevo tyurok» Abulgazixana») nomli monografiyasini yozdi. Monografiya 1969 yilda Toshkentda nashr etilgan. Tilshunos olim 1970 yilda «Abulg'ozini Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida fe'l va nom» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

«Shajarai turk» haqidagi monografiyada asar tilining grammatik qurilishi hozirgi zamon tilshunoslik fanining yutuqlari hisobga olingan holda yangicha metod asosida tahlil qilingai. Ko'rinib turibdiki, tilshunosligimizda ham tarixshunosligimizdagidek, Abulg'ozining «Shajarai turk» asari har tomonlama va keng o'rganilmoqda. Biroq, adabiyotshunosligimizda bu yodgorlik keng va atroflicha o'rganilgani, uning badiiy qimmatini yoritilgani hamda, adabiyot darsliklarida badiiy nasrning namunasi sifatida joy olgani yo'q. Zahiriddin Muxammad Boburning «Boburnoma»si esa 30- yillardan boshlab olimlarimiz tomonidai abadiyotshunoslik nuqtai iazaridan keng o'rganila boshlandi. Bir qator ilmiy nazariy ishlarda «Boburnoma»ning o'zbek klassik adabiyotida tutgan

o'rni yetarli tahlil etilgan. «Lekin ana shu tipdagi asar bo'lgan Abulgozining «Shajarai turk» asari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganilgani yo'q. Vaholanki, Vengriya Fanlar Akademiyasi a'zosi A.G.Vamberi «Abulg'ozining ko'pchilik ishlari Boburni xotiraga tushiradi, jahon uning «Shajarai turk»i uchun minnatdordir»<sup>71</sup>degan edi. Shuningdek, adabiyotshunosligimizda hozirgacha «Shajarai turk»ni badiiy nasrimizning namunasi sifatida tadqiq etib, Abulg'ozi va uning bu asarining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni belgilangani yo'q.

Ayni chog'da, 40-yillarda «Shajarai turk» ni o'rganishga kirishgan, «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ni urushgacha tayyorlab nashriyotga topshirgan adabiyotshunos Olim Sharofiddinov (urushda halok bo'lgan) 1945 yilda nashr etilgan «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ning ikkinchi kitobida «Shajarai turk» kitobi haqida qisqacha ma'lumot va undan ayrim namunalar berib: «Abulg'ozi Bahodirxon binni Arabmuhammad o'zbek xonlari ichida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug'»<sup>72</sup>,— deb adibga juda to'g'ri baho beradi. A.P.Abrajeyev 1944-yilda, «Abulg'ozi Bahodirxon «Shajarai turk» asarining adabiy ahamiyati» mavzuida nomzodlik dissertasiyasini yozdi va himoya qildi. A.P.Abrajeyev o'z tadqiqotida birinchi bo'lib «Shajarai turk»ning adabiy ahamiyatini o'rganishga kirishdi, asarning qurilishi, unga kiritilgai qo'shimcha epizodlar, ishtnrok etuvchilar ta'rifi, voqealar tasviridagi badiiylik, til va uslubi hamda she'rlarnng badiiy qimmatini yoritishga intildi va qisman muvaffaqiyatlarga erishdi. Tadqiqotchi Abulg'ozi siymosini asarning bosh qahramoni, xuddi badiiy obraz sifatida talqin etishga berilib ketadi. Lekin «Shajarai turk»niig kompozision tuzilishi, badiiy qimmati, turli-tuman badiiy tasvir vositalari, peyzaj, portret tasviri, xalq urf- odatlari, folklor unsurlari kabi juda ko'plab jihatlarini mukammal tadqiq etmaydi.

---

<sup>71</sup> Вамбери Г.А. История Бухары или Моваравннахра. М.: 1964. – 115б.

<sup>72</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. I жилд. Т.: 1988, 531- бет.



Mazkur asarni o'rganish borasida keyingi yillarda ham ayrim ishlar qilindi. M.Yunusovning «XIX asr shoiri Komil Xorazmiy ijodiyoti» mavzuida yoqlagan iomzodlik dissertasiyasida, V.A.Abdullayevning «XVII—XVIII asrlarda Xorazm o'zbek adabiyoti» mavzuida yoqlagan doktorlik dissertasiyasida va H.Ko'ro'g'lining 1969-yilda Moskvada «O'g'uzlarning qahramonlik eposi» degan mavzuda yoqlagan doktorlik dissertasiyasida ham Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» nomli asarlari tayanch manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. E.Rustamov ham o'zining «XV asrning birinchi yarmida o'zbek she'riyatiga bag'ishlangan monografiyasida o'q va yoy ta'rifi, tavsifida boshqa manbalar qatori Abulg'ozining «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlariga murojaat etgan.

Oltmishinchi yillarga kelib, oliy o'quv yurtlari uchun o'zbek adabiyoti tarixidan darsliklar yaratilishi munosabati bilan Abulg'ozi Bahodirxon faoliyati va ijodi oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligining ikkinchi kitobida muallif V.A.Abdullayev Abulg'ozi faoliyatiga «XVII asr tarix asarlari va tazkiralar» bo'limida birmuncha o'rin ajratgan<sup>73</sup>. Kitobxonlar, talabalar darslik orqali Abulg'ozi va uning merosining adabiy qimmatini haqida ham ma'lum darajada tasavvur hosil qiladilar.

«Shajarai turk» tarixiy manba sifatida ham, badiiy-adabiy, siyosiy yodgorlik sifatida ham Abulg'ozi ijodida mumtoz o'rin tutadi va o'zbek adabiy prozasining yetakchi xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. «Shajarai turk»da XVI-XVII asr Xorazm tarixini tasvirlovchi tarixiy voqealar mavjud. «Shajarai turk»da esdalik tarzida bayon qilingan nasriy parchalar, rivoyatlar hamda, muallifning o'z sarguzashtlari va azob-uqubatlari shu qadar jonli aks ettirilganki, u badiiy asarday o'qiladi. Abulg'ozi asarlarining turkiy xalqlar tarixiga, Xorazm tarixiga oid ma'lumotlari muhim ahamiyatga molikdir.

---

<sup>73</sup> Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент, 1964, 14- бет.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgan Abulg'ozini mazkur asarlarida ko'plab afsona va rivoyatlarni ham keltiradi.

Abulg'ozining yoshlik yillari ziddiyatlarga to'la murakkab sharoitga to'g'ri keldi. XVII asrning birinchi yarmidan boshlab, Xorazm o'zbek va turkman feodallari o'rtasida yer uchun, suv uchun kurash maydoni bo'lib qolganligini Abulgozi o'z ko'zi bilan ko'rdi, ana shu tarixiy voqealarning ishtirokchisi bo'ldi. Katta akasi Asfandiyorxon bilan birgalikda, Abulgozi ham toj-taxtni egallash uchun kurashdi.

Abulgozi asarlarida o'zi yashagan davr, feodalizm davridagi ziddiyatlar va ularga qarshi fikrlar xolis turib yozilganligi, hukmron sifatida uning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishga intilganligi Abulgozining o'z xalqi oldidagi xizmatlaridan dalolat beradi. Abulg'ozini izdan chiqqan savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishga, chet ellar bilan madaniy aloqaga ham e'tibor berdi. U o'zining elchisi Davlatmand orqali rus podshosita Rossiya bilan Xiva o'rtasida savdo munosabatlarini mustahkamlashni va ikki o'rtada savdo munosabatlari o'rnatishni taklif qildi. Abulg'ozini Bahodirxon Xiva va Hindiston davlatlari o'rtasida diplomatik va savdo munosabatlarini mustahkamlash uchun Shohbobo va Shohjonlarni elchi qilib Hindistonga yuboradi. Abulgozi 1648 yilda Eron shohiga elchi yuborgach, ular o'rtasida ham savdo munosabatlari yaxshilanadi<sup>74</sup>.

Abulg'ozining asarni yaratishidan asl maqsadi Chingizxon avlodining tarixini yaratish emas, balki o'zidan oldin o'tgan ota-bobolarining Xorazmda hukmronlik qilgan davrlari tarixini, ya'ni o'z ajdodlarining beparvoligi tufayli yozilmay qolgan tarixni yozib, avlodlarga qoldirish edi: «Ammo bizning ota-aqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufligi, bu ikki sababdin bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Shayboniy Abdullaxon II (1583-1598 yy.)) otalari (Abulxayrxon (1528-1568 yy.)) birlan bizning otalarimizning (Shayboniy Yodgorxon (XV asr)) ayrilgan yeridan to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib

---

<sup>74</sup>Xудойназаров Х. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.:1994. – 116.

kishi topmaduk, zarur bo'ldi (va) ul sababdin o'zimiz aytduk»<sup>75</sup>. «Shajarai turk» asarini muallif 1663-1664 yillar davomida yozgan. Asar Xorazm tarixining XVI-XVII asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy tarixini bayon etishda nodir manbadir. Ammo Abulg'ozixon asarni yakuniga yetkaza olmay olamdan ko'z yumadi. Asarni uning o'g'li Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn Mulla Urganjiy degan ulamo yakuniga yetkazadi. Muallif asarni yozish jarayonida xastalanganligiga qaramay, uni davom ettirishga ahd qiladi: «Biz tarixni mo'g'ulda, o'zbek-da o'tgan yaxshi podshohlar va kengashli biylarning aslini va qilg'an ishlarini va aytg'an so'zlarini barchasini bir-bir aytib ulug' kitob qilmoq ko'nglimizda bor edi, aytayin teb yurugan vaqtda xasta bo'ldum. Xastam uzoqqa tortdi. Ko'nglimizdin aytdim, o'la qolsam, kitob aytilmay qolur. Mentek bilur kishi yo'q. Xususan bizning jamoatimizni Yodgorxondin to faqirg'acha yot yurtning kishisi bilmas. O'z xalqimizda hech bilur kishi yo'q. Pas men muni go'rga olib borg'animgin ne foyda aytdim. Taqi to'rt navesandani o'lturtdim. Taqi to Odamdin Jo'chixong'a kelguncha goh ko'hna tarixlarning yuzina boqdim. Goh boqmay aytdim, aning uchun barchasin yod bilur erdim. Shaybanxondin to o'zumga kelguncha hech kitob yuzina boqmadim. O'zumning yodimda bor erdi aytdim»<sup>76</sup>.

U o'z asarini yozishda bir necha o'nlab tarixiy asarlarni o'rganib tarixiy haqiqat deb topganlarini umumlashtirib yozgan. Bu haqda u asarni yozishga kirishar ekan, uning qo'l ostida 18 ta forsiy va turkiy tillarda yozilgan manba borligini qayd qiladi. Kitobda muallif ulardan faqat ikkitasini: Fazlulloh Rashididdinning «Jome' ut-tavorix»<sup>77</sup> va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»<sup>78</sup> asarlarini keltiradi. Bundan tashqari, asarning original qismini (8, 9-boblari) yozishda muallif o'zi bilan va so'rab-surishtirib to'plagan ma'lumotlaridan ham kengfoydalangan.

«Shajarai turk» to'qqiz bobdan iborat bo'lib, qisqa muqaddima bilan boshlanadi. Asarning birinchi bobida Alloh Odamni yaratganidan to Mo'g'ulxon

---

<sup>75</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 116.

<sup>76</sup> Ўша асар, – 506.

<sup>77</sup> Рашидиддин. Жоме ут-таворих. Тошкент: 1995.

<sup>78</sup> Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент: «Шарк», 1997.

tug'ilgunigacha bo'lgan davr qisqacha bayon qilingan. Chunki musulmon Sharqida asarni shunday boshlash an'anaga aylanib ketgan edi. Bunda albatta boshqa tarixiy asarlardagi singari afsona va rivoyatlarga murojaat qilingan.

Ikkinchi bobda Mo'g'ulxonning tug'ilganidan to Chingizxongacha bo'lgan davr aks ettirilgan. Bunda tarixiy voqealarning afsonalar bilan qorishib ketganligini kuzatish mumkin. 3-bob esa, Chingizxonning tug'ilganidan vafot etganligiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 4-bobda O'dagay qoon va uning avlodining hukmronligi haqida so'z yuritiladi. 5-bob Chig'atoyxon avlodining Movarounnahr va Koshg'arda podsholik qilganligi, keyingi bob Tuluxon avlodining Eronda hukmronlik qilganligi, 7-bob esa Jo'chixon avlodining Dashti Qipchoqda podsholik qilgani haqidadir. 8-bob Jo'chixonning o'g'li Shaybonxon avlodining Movarounnahr, Qrim, Qozoq va Turonda xon bo'lganligi haqida bayon etilgan. 9-bob Shaybonxon avlodining Xorazmda podsholik qilganligining zikridir. Bu bob asarning eng qimmatli qismi bo'lib, aynan mana shu bobda muallif Xiva xonligida XVI-XVII asrning ikkinchi yarmida bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy tarixni bayon qiladi. Muallif uni bayon qilar ekan, o'sha davrdagi ijtimoiy muhitni ham, otasi hamda akalari o'rtasidagi toj-taxt uchun olib borilgan kurashni, shuningdek o'zining qochoqlikda yurgan kezlari, urush va mag'lubiyatlari haqida to'liq yoritishga harakat qiladi.

Abulg'ozni Bahodirxon o'tmishdoshlari an'anasini davom ettirib, ulardan ilhomlanib, feodal o'zaro urushlar va uning salbiy oqibatlarini aks ettirdi. Tarixiy voqealarni bayon qilishda ular kabi hikoya va rivoyatlarga murojaat etdi. Chunonchi, Gulbadanbegim o'zining «Humoyunnoma»<sup>79</sup> asarida o'zboshimchaliklarni bartaraf qilish va Hindistonii zabt qilish uchun Humoyunning qayta otlanganligini qalamga oladi. Asarda Hindolning o'ldirilishi, Komron ko'zining ko'r qilinishi, Humoyunning buyrug'i bilan Komronning o'ldirilishi kabi tarixiy voqealar Abulg'ozni Bahodirxonning «Shajarai turk» asaridagi voqealarga, ya'ni Arabmuhammadxonning ko'r qilib o'ldirilishi, Asfandiyorxon tomonidan Abulg'ozining Eronga surgun qilinishi, Avg'onning rus podsholigi ixtiyoriga

---

<sup>79</sup> Gulбаданбегим. Хумоюннома, С. Азимжонова таржимаси, Т.: «Ўқитувчи», 1997.

Moskvaga yuborilishi kabi tarixiy voqealar bilan monand keladi. Asosiy masala bu o'xshashlikda emas, balki tarixda takrorlanib turuvchi toj- taxt uchun kurashlarni ilg'or nuqtan nazarda turib qalamga olishda Abulg'oziga Gulbadanbegim an'analariing qo'l kelganligidadir.

Shuningdek, Hofiz Tannsh Buxorayning «Abdullanoma» asari O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda katta o'rin tutadi. Asar 1534 yildan 1539 yilgacha O'rta Osiyo, Qozog'iston va qisman Afg'oniston va Xurosonda bo'lgan siyosiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning 56-88-sahifasigacha qadimiy afsonalar o'rin olgan. «Shajarai turk»ning ham 8—88-sahifasida ana shunday voqealar beriladiki, bu jihatdai bu ikki asarning boshlanmasi bir-biriga o'xshab ketadi. Zotan Abulg'ozining «Shajarai turk» asaridagi Nuh payg'ambar, Olonquva va uniig farzandlari haqidagi hikoyalar «Abdullanoma»dagi afsonalarni eslatadi.

Abulg'ozixon asarning 7, 8 va 9-boblarining bir qismini (1644 yilgacha kechgan voqealar tarixini) yozib ulgurgan. 1-6-boblar va 9-bobning davomi (1644—1664 yil voqealari) Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy tomonidan yozilgan. Uni Mahmud Urganjiy hijriy 1116/1704-05 yili Xorazmda bosh xon bo'lib turgan «oliysha'n Muso Muhammadxon» buyrug'i bilan kitobga kiritgan. Muso Muhammadxon esa Shohg'oziy ibn Avazg'oziy ibn Sultong'oziy ibn Elbarsxonning o'g'li bo'lgan. Uning nasabiga kelsak, Abulg'oziy quyidagi ma'lumotlarni beradi. Dashti qipchoqlik Elbarsxon 1512-1513 yillari Xorazmdan safaviylarning noiblari va qo'shinlarini haydab, xon ko'tariladi va qarindoshlaridan amakilarini ham da'vat etib, ularga mamlakat tumanlarini idora etish uchun beradi. Oradan ancha vaqt o'tgach, 1532 yili arzimagan narsa uchun Elbarsxon avlodlari bilan uning amakivachchasi Avanesht sulton va avlod-urug'lari o'rtasida qirg'in-barot urushlar bo'ladi. Oqibatda Elbarsning farzandlari mag'lub bo'lib, barchalari Buxoro, Samarqand va Toshkentga qarindosh shayboniylar huzuriga ketishga majbur bo'ladilar. Ulardan sulton G'oziy ibn Elbars Buxoro xoni Ubaydullohxon ko'magida Xorazmni qisqa vaqtga qaytarib olishidan ham natija chiqmaydi.

## 2.2 Asarda xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotining aks ettirilishi

XVI va XVII asrning birinchi yarmida Xiva xonligidagi ichki ahvol haqidagi ma'lumotlar juda oz bo'lib ular asosan Xivaga kelgan elchilar va savdogarlarning xotiralari, safar haqidagi ma'lumotlari bilan cheklangan. Bu davrda xonlikning tarixini yorituvchi yagona manba Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asaridir. Asarda muallif Xiva xonligi tarixidagi o'sha davr siyosiy voqealarni yoritishga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, unda tarixning turli masalalariga oid e'tiborli ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Jumladan, asarda o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat haqida ham ko'plab ma'lumotlar mavjud.

Asarda turk-mo'g'ul qabilalari, xususan, ular nomlari, etimologiyasi, urf-odatlar haqidagi etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Bunda o'zbeklar, sartlar hamda turkman urug'lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari va h) haqidagi ma'lumotlar xam o'ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo'g'in)ni tashkil qiladi degan. Bular: uyg'ur, qang'li/qiniqli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. Shunisi e'tiborga molikki, muallif urug', qabilalarning nomlarini keltirar ekan, ularning hududiy jihatdan joylashish o'rni haqida ham ma'lumot beradi: «Qalach – O'g'uz o'g'lonlari turkmanlardin ayrilmay Movarounnahr va Xurosonga tushdilar. Qipchoq – Tin va Atil va Yoyiq; bu aytilgan suvlarning orasinda o'lturdilar. Qiniqli – turkmanlar bilan birga o'lturur erdilar. Turkman viloyatga tushgandin so'ng, Issiqko'l va Chu va Talosh; bu aytilg'an suvlarning yoqalarinda vatan qilib ko'p yillar o'lturdilar»<sup>80</sup>. So'ngra u boshqa turkiy qabila va urug'lar haqida to'xtab o'tadi: 1. Takrin yoki makrin; 2. Qirg'izlar; 3. Kamkamchutlar; 4. O'rmanqit; 5. Tatarlar; 6. O'yrat/oyrat 7. Tumat urug'i; 8. Nayman; 9. Qirayt 10. Ungut; 11. Xitoy; 12. Turqaq 13. Mo'g'ul urug'lari; 14. Markit/makrit; 15. Qo'nqirat; 16.

---

<sup>80</sup> Абулғозий. Шажараи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 316.

Inkiras; 17. Alqanut; 18. Qoranut; 19. Qurlas va Echkirin; 20. O'rmavut; 21. Qo'niqqimar; 22. Arlat; 23. Kilgit; 24. Baday va qishliq urug'lari; 25. Uyshan; 26. Sulduz; 27. Ilkurkin; 28. Kankit; 29. Do'rman; 30. Barin va suqut; 31. O'klan. 32. Bayovut; 33. Jalayir urug'larining nomlarining kelib chiqishi hamda hududiy o'rnini keltirgan. Abulg'oziy Bahodirxon o'z kitobida mo'g'ullarni ikki katta bo'lakka bo'ladi. Biri qiyon/qiyot (nirun), ikkinchisi nuguz/nukuz (darlikin). Bulardan tashqari, mo'g'ullardan 25 ta urug' va qabilalarini tilga oladiki, ulardan barisi o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan<sup>81</sup>.

O'zbeklarning urug' va qabilalariga tegishli ma'lumotlardan asarda keltirilgan urug' va qabilalar nomi juda muhim. Bular: Orlot/arlat, og'or, olayunotli, o'qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho'bichoq, cho'boni, chig'atoy, cho'ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo'rg'oli, qo'rqin, qorliq, qipchoq, qoratoshli, qalmoq, qirg'iz, chiroyli, qutlar, lola, mo'g'ul, mang'it, nayman, mo'ndi, yozir, yag'mo, yovmut, yurti va b<sup>82</sup>.

O'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga oid ma'lumotlar orasida Xorazmning o'sha zamonlarda ham obod bo'lganligi, Amudaryo o'zanining o'zgargan vaqti va uning oqibatlarini haqidagi ma'lumotlar ham qimmatlidir. Jumladan, Xiva xonligida yashovchi xalqning turmushi, yashash sharoiti, faoliyati bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, xonlikdagi tanazzulning asosiy sabablaridan biri xonlik aholisi nafaqat etnik, balki madaniy-iqtisodiy munosabatlarda ham bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhga bo'linganligi, xonlikdagi o'zaro ichki qarama-qarshiliklarni kuchaytirgansabablardan biri shu ekanligini ta'kidlaydi.

---

<sup>81</sup> Булар: меркит, кўнғирот, қоранут, қурлос, элчигин, урмовут/уймовут, кўникмар, арлот, келкит, бодай/бадай, қилик, уйшун, сулдус/сулдуз, элдуркин/илдуркин, кенкит, дўрбан/дўрман, барин/бахрин, сукут, қурловут, буркут, уклан/ўклан, журот, ҳожарот, бойвут, жалойир.

<sup>82</sup> Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Б. 35.

Jumladan, shahar hamda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qishloqlar aholisi Xorazmda qadimdan yashovchi xalq avlodlari hisoblangan. Ular asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Ikkinchi muhim etnik guruh turkman qabilalari bo'lib, ular xonlikning g'arbiy va janubiy qismlarida yashashgan, hamda asosan chorvachilik va qisman dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Turkmanlar ko'plab urug' va qabilalarga bo'linganligi sababli yagona kuch sifatida harakat qila olmaganlar va XVI asrda xonlikka bo'ysundirilganlar. Turkmanlarning qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar doirasiga kiritilishi turkman qabilalarida ichki aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Bu jarayon turkman amaldorlarini Xiva xonlari xizmatiga o'tishini tezlashtirdi, natijada turkman qabilalarining tarqoqligi yanada kuchaydi.

Elbarsxon bilan Xorazmga ko'chib o'tgan o'zbeklar uchinchi etnik guruhni tashkil qilib, ular ko'chmanchi hayot tarzini va qabila hamda urug'larga bo'linishni saqlab qoldi.

«Shajarai turk»da XVI-XVII asrlarga oid xalq tarixining juda ko'p tomonlari haqida ma'lumot beriladi. Muallif xonliklar o'rtasidagi talonchilik urushlari yoki yaqin qarindoshlar orasida yuz bergan toju-taxt uchun ziddiyatli kurashlarni tasvirlar ekan, bu kurashlarda mehnatkash xalqning hal qiluvchi roli borligini ta'kidlaydi. Shuningdek, xalqning tez-tez bo'lib turgan qonli to'qnashuvlar tufayli vujudga kelgan ayanchli turmush manzarasi tasvirlanadi.

Elbarsxon vafot etgach, o'sha davr taomili bo'yicha xonlik taxtiga Yodgorxon nabiralarning to'ng'ichi Belikach sultonning o'g'li Sultong'ozi, uning vafotidan so'ng esa Abulakxonning o'g'li Xasanquli o'tirdi. Shundan so'ng Elbarsxon va Belikach sultonlarning o'g'illari birlashib Urganchga Xasanquli ustiga yurish qiladi va Urganch qamal qilinadi. Bu haqida asarda shunday deyiladi: «Urganch ulug' shahr. Tez-o'q qahatlik bo'la qoldi. Bir eshakning kallasi qirq-ellik tanga bo'ldi topilmadi. Chig'iriyq desa Urganch sartlarining achchig'i kelur. Aning ma'nosi ul tururkim, Urganchning mullolar tegan jamoati bo'lur. Ularning bir davlatmand yaxshi kishisi bor edi. Ul eviga



kirib borsa ko'rarkim mullolarning oqsoqolliklarindin besh-olti kishi o'lturub turur. Ev egasi eshakning zakarini tabaqg'a solib yilqining o'gurgan qazisin to'g'ragandek chig'iriy-chig'iriy to'g'ray turur. Xalqning ahvoli ikki oyda shundaq bo'ldi. Andin so'nggisin mundin qiyos qiling»<sup>83</sup>. Bunda oddiy xalq o'zaro urushlar vaqtida qanchalik qiyin ahvolga tushishi yoritilganining guvohi bo'lish mumkin. Urganchning o'tmishdagi qahatchiligi va undagi xalqlarning ochlikdan o'lar holatga kelganliklari haqida Urganch qo'rg'oni qamal qilinganda odamlar ochlikdan o'lmaslik uchun eshak, it go'shtlarini yeyishga majbur bo'lganliklari Muhammad Solih ham o'zining «Shayboniynoma»<sup>84</sup> dostonida tasdiqlaydi.

Xonlikda mavjud soliqlar haqida asarning So'fiyonxon hukmronligi davri qismida keltirilgan. So'fiyonxon Abulxonda yashovchi turkman qabilalariga odam yuborib, «Tangri buyuruqinda zakot bermak farz turur. Har yilda mollarindin zakot bersunlar. Men kishi yuborib chopturmayin»<sup>85</sup> deb odam yuboradi. Turkmanlar xonga itoat qildilar va har yili o'zlarining mulklaridan zakot berib turdilar. Bunda katta urug'larga bir kishi va 2-3 ta kichik urug'larga bir kishi jami qirqta soliq yig'uvchi yuborilgan. Ular bir necha yil davomida soliqlarni vaqtida to'laydilar, ammo bir kuni xonga itoat qilishdan bosh tortib, soliq yig'uvchilarni o'ldiradilar. Xon ularni jazolashga qaror qiladi va Abulxonga boradi. So'fiyonxon qo'shinidan qochgan turkmanlar Cho'takka yashiringanlar. Xon o'z qo'shinlari bilan Cho'takni qamal qiladi. Qamalda qolganlar Oqatoyxonga itoat etishga majbur bo'ladi. Xon ularga har bir o'ldirilgan odam uchun ming qo'ydan qirq ming qo'y soliq belgilagan. Soliqni xonga itoat etmagan taka, yovmud, sariq, va ersarilar to'laganlar. Bu voqeadan bir necha yil o'tgandan keyin bu soliq jon boshiga va chorvasining miqdoriga qarab boshqa turkmanlarga ham joriy qilindi: «turkmanlarning boshlarina va mollarina loyiq mol beraturg'an turkmanlarning boshining, molining yuzindin hisob qilib, ichki salurg'a o'n

---

<sup>83</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1256.

<sup>84</sup> Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Т.:1961. – 3216.

<sup>85</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1266.

olti ming qo'y, mundin boshqa podshohliq shilanda so'ymoq uchun ming olti yuz do'nan qo'y». Bunda keyingi soliq «qozon qo'yi», o'n olti ming qo'yga «barot qo'yi» deb nom berilgan<sup>86</sup>. Igdil va chovuldur urug'lari 12 ming, ushoq urug'i 4 ming, ko'klarga 12 ming barot, ming ikki yuz qozon qo'yi, adaqlig'a 12 ming barot qo'yi va ming ikki yuz qozon qo'yi to'lagan. Bunda «Barot qo'yi» solig'i navkarlar hisobiga, «qozon qo'yi» solig'i esa xon saroyiga olib ketilgan. Bu davrda urganchdan Abulxonga o'tish bir ovuldan ikkinchisiga o'tishga teng edi, chunki Amudaryo Urganch qal'asidan Abulxon tog'ining sharqiy tomoniga qarab oqar edi. O'sha joydan O'g'argacha o'tib Mozandaron (Kaspiy) dengiziga quyilgan. o'sha davrda Amudaryoning har ikki tomoni bo'ylab ekinzorlar bo'lgan, bu yerda ko'plab mevali daraxtlar, uzumzorlar bo'lgan. Baland yerlarga chig'iriqlar qurilgan<sup>87</sup>.

Xonlik aholisi asosan qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilikda g'alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Jumladan, asarda ma'lumot berilishicha, ekinzorlarga asosan g'alla ekilib, ayniqsa kuzgi bug'doy ekish yetakchi o'rin egallagan. Bu haqida asarda quyidagicha yoziladi: «Ul vaqtda Mazdehqon qal'asindin to Baqirg'anning beri yuzi Quyg'un tegan yergacha bug'doy ekilur erdi. Bizning xon (Arab Muhammadxon) Tuk qal'asining yuqorisidin bir ariq qazdurub tururlar. Faqir dunyog'a kelmasdin bir yil burun. Me'zon bo'lg'anda saqasini ko'marlar erdi. Bug'doyni o'rg'an vaqtda ocharlar erdi. Bir necha yildin so'ng ariqning kengligi otqan o'q o'tmasday bo'ldi. Suvning oyoqi Quyg'un bordi. Yolg'uz bug'doy ekilur erdi. Otli kishi o'n kunda bug'doyning toshindan aylanib kela bilmas erdi. Ul vaqtda pul-puchak, yarim misqol ko'mush birtanga yerina yurur erdi.<sup>88</sup> Bir tangaga yarim teva yuki bug'doy berurlar erdi. Bir misqol ko'mushga bir xarvor bug'doy berurlar erdi». Bundan Arabmuhammadxon davrida Tuk qal'asining yuqori qismidan kanal o'tkazilgani, bu bilan juda keng hududlarning sug'orilganligi haqida bilib

---

<sup>86</sup> Бу солиқларнинг умумий миқдори 58 минг 800 қўйни ташкил қилган.

<sup>87</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 126б.

<sup>88</sup> Ўша асар. – 161-162б.

olishimiz mumkin bo'ldi. Dehqonlar me'zon oylarida bug'doy ekkanlar va o'rimdan so'ng u yerga suv quyganlar. Bu orqali ular bug'doydan hosilini ko'proq olganlar. Abulg'ozixon bir necha yillarda kanal suvi katta oqimga aylanganligi hamda tabiiyki ekin yerlari ham kengangayligini, natijada bug'doyning narxi ancha arzonlashganini alohida ta'kidlagan. Bundan tashqari, yuqoridagi parcha orqali o'sha davrdagi pul muomalasi haqida ham ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin, ya'ni muallifning yozishicha, yarim misqol kumush bir tanga miqdoriga teng bo'lgan. Bir misqol kumushga bir eshak yuki og'irligida, bir tangaga esa, bir tuya yuki og'irligida bug'doy olish mumkin edi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, xonlikdagi siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashgan Arabmuhammadxon davrida ham sug'orish inshootlari qurilishiga, xalq hayoti, turmush darajasining yaxshilanishiga e'tibor qaratilgan.

Bu davrda sug'orish inshootlari qurilishining asosiy sababi, o'sha davrda sug'orish tizimining o'zgarganligi bo'ldi: Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirib, eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylanadi. Bu haqida muallif: «Biz dunyog'a kelmasdin o'ttuz yil ilgari Amu suvi, xost kinorasining yuqorisini Qora ayg'ir to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, Tuk qal'asina borib, Sir dengizina qo'yg'an erkandur. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti. Ra'iyat Urganch cho'l ham bo'lsa o'lturub, xon boshliq sipoh xalqi yoz Amu suvining yoqasinda munosib yerlarda ekin ekib o'lturub, ekinni olg'andin so'ng Urganch borurlar erkandur»<sup>89</sup>. Demak, Amudaryo o'zanining o'zgarganligi (1573) sabab, Urganch cho'lga aylanadi. Natijada bu yerda dehqonchilik bilan shug'ullanishning imkoni bo'lmaydi va aholi daryo yoqasida ekin ekib, uni o'rgach Urganchga qaytadi. Bundan aholining bu davrda ham to'la o'troqlashmaganligi ma'lum bo'ladi.

Xonligida suv tanqisligi aholining katta qismini tashkil qilgan chorvadorlar hayotiga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu haqida: «Bahor qo'y

---

<sup>89</sup> Ўша асар, 1676.

qo'zilar. Xevaqda o't bo'lmas. Rang chiqar. Xevaq turkmani qumg'a ketar. Sart ekin ekmak uchun kendli kendina ketar»<sup>90</sup>.

Aholi orasida ruhoniylar alohida mavqega ega edilar. Darvish shayxlari Xivadagi ta'sirlaridan foydalanib, xonlar o'rtasidagi kurashlarda faol qatnashganlar. Bu haqida Abulg'ozixon shunday yozadi: «Bakirg'an ostonasinda Sayid ota avlodindin bir kishi bor erdi, Nazar xoja derlar erdi. Elbars sulton aning qizin oldi... Shul kunlar xalqning barchasi otlanib Asfandiyor sultonning kelganini yaxshi bo'ldi, otasini bilmagan zolimlardan xudoy qutqazdi, deb guruh-guruh Asfandiyor sultong'a kela erkandur... Piyoda va otli o'tmasdan Asfandiyor sultong'a ko'makka kelaturg'an kishining va ba'zisini so'z birlan va ba'zisini zo'r birlan o'zini qo'shub aytibdur. «Xudoy ko'rsatmasin Asfandiyor sulton yurt olsa erkagingizni o'lturur va urg'achingizni Abulxon va Manqishloq turkmaniga buyurur. Ul o'lja qilib olib ketar. Agar mening bu so'zimda yolg'on bo'lsa, tangrining kalomi ursin meni»- teb, har kishining oldinda Qur'ondan bir ont ichibdur. Asfandiyor sultong'a kelaturg'an kishining barchasini qatig'a yig'di-da oldi. O'g'lon-ushoqini turkman o'lja etar teb ond ichgandin so'ng, qo'rqti... Bir oqsaqolli sayid har kunda Qur'ondin yuz karrat ont ichsa, men sizlarning g'amingizni yeyman tesa kim inonmas»<sup>91</sup>. Bunda Abulg'ozixon otasiga qarshi isyon ko'targan Habash Sulton va Elbars Sultonlar Shayx Sayid ota avlodidan hisoblangan shayx Nazar xoja 1622-yilda Arab Muhammadxonning o'g'illarini otasiga qarshi kurashda qo'llab quvvatlaydi, hamda xalqni ham o'ziga ergashtirishga erishadi. Natijada Habash sulton va Elbars sultonlarga qarshi kurashga chog'langan xalq Nazar hojiga ergashadi.

1558-yilda Volga daryosi bo'ylab suzib Astraxan shahridan Kaspiy dengizi orqali Mang'ishloq yarimorolida bo'lgan sayyoh A. Jenkinson o'z esdaliklarida shunday yozadi: «Bu sulton (Temur sulton) ko'shk va shaharda yashamay, sahroda yashagan va men uning kichkinagina qamishdan yasalgan,

---

<sup>90</sup> Ўша асар, 1726.

<sup>91</sup> Ўша асар, 1646.

usti kigiz va gilamlar bilan o'ralgan o'toviga kirib borganimda u o'tirgan edi. U bilan birga bu mamlakatning ruhoniysi o'tirgan edi. Yevropaning kattagina qismida Rim yepiskopini qanchalik hurmat qilsalar, uni ham xalq shunchalik azizlar edi»<sup>92</sup> - deya qayd etgan edi.

Bu davrda xonlikda savdo munosabatlari to'xtaladigan bo'lsak, o'zaro feodal urushlar va qo'shni davlatlar bilan bo'lgan ixtiloflar savdo aloqalarining, xususan karvon savdosining o'sishiga katta zarba berdi. Lekin, shunga qaramay, Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasida savdo-sotiq tamoman to'xtab qolmadi. Abdullaxon II xonlikni egallashi arafasida Movarounnahrlik yirik savdogarlar shuningdek, ziyoratchilar Shirvonga ketishda qizilboshlar yerlari orqali o'tishni xoxlamay, Urganch orqali Mang'ishloqqa o'tishgan, hamda shu yerdan Shirvonga boradigan kemalarga o'tishgan. Abdullaxon IIning xonlikka bostirib kirishining muhim sabablaridan biri ham shu edi. Rossiya bilan savdo aloqalari yuritish esa O'rta Osiyo xo'jaligining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega edi: «Biz dunyog'a kelgan yilining avval bahorinda o'n yetti kishi o'rusg'a savdoga ketar»<sup>93</sup>. Bu haqda asarda batafsil ma'lumot berilmagan bo'lsa-da, o'sha davrda xonlik aholisining qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari bo'lganligidan dalolatdir. Shuningdek, Xorazm madaniyati tarixini o'rgangan olim S.P. Tolstov bu yerda oz bo'lsada Buxoro va Erondan turli mollar keltirilishi haqida qayd qilgan<sup>94</sup>.

---

<sup>92</sup>Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560гг. Английские путешествие в Московском государстве в XVI веке. Перевод с английского Л.Готье. Л.:1932.

<sup>93</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1676.

<sup>94</sup>Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М-Л.:1948. – 536.

## **2.3 «Shajarai turk» asarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot masalalari**

«Shajarai turk»da keltirilgan tarixiy ma'lumotlar ichida Shaybon ulusi va uning sarhadlari, uning XV asrning so'nggi choragi XVI asr boshlaridagi umumiy ahvoli, Sibir xonligi, Xorazmning XVI – XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, uning Rusiya, Qozoq hamda Buxoro xonliklari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir.

Shayboniylar hukmronligi davrida, XVI asrda O'rta Osiyo hududida feodal tarqoqlik kuchaya boshlaydi. Buning ijtimoiy - siyosiy sabablaridan biri shayboniylar davlati boshida cheksiz huquqqa ega bo'lgan xon o'tirgan, butun viloyatlar shu xonadon a'zolariga, sultonlarga bo'lib berilgan, viloyat hukmronlarn esa maxsus askariy guruhga, urug' va qabilalarning yuqori doiralariga, ruhoniylarga suyanganlar. Biroq hukmdorlar xonga bo'ysunishni istamay, o'z hududini mustaqil boshqarishga intilgan.

«Shajarai turk»da muallif ta'kidlaganidek, asarni yozishdan maqsad Yodgorxon davridan boshlab yozilmay qolgan tarixni yozib, uni keyingi avlodlarga yetkazish edi. Bunda Abulg'ozixonning o'zi hukmdor bo'lganligi sabab, u rasmiy doira arboblari itoat etishi shart bo'lmagan. Bu esa, mutloq ijod erkinligini ta'minlagan ya'ni asarda o'zidan oldingi va o'zi bilan zamondosh hukmdorlarning, shuningdek o'zining ham davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosati haqidagi fikrlarini ochiq bayon etgan. Jumladan, hukmdorlar siyosati o'zaro kurashlar oqibatida mahalliy xalqning aziyat chekkani asarda jonli tarzda bayon etiladi. Elbarsxon vafotidan so'ng, Yodgorxon nabiralari o'rtasida toj-taxt uchun bo'lgan kurashlarda Urganch shahri, uning aholisining ahvoli ifodalangan.

Shayboniyxon vafotidan so'ng shoh Ismoil Xurosondagi barcha viloyatlarga dorug'a yubordi. Xorazmga ham uchta dorug'a yuborilib,

ulardan biri Xiva va Hazoraspga, yana biri Urganchga hamda keyingisi Vazir shaharlariga yuboriladi. Demak, xonlik tuzilishi arafasida undagi asosiy shaharlar Xiva, Hazorasp, Urganch va Vazir shaharlarining siyosiy mavqeyi baland bo'lgan. So'fiyonxon davrida xonlik poytaxti Urganch shahri bo'lib, shuningdek bu davrda xonlikda Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Xuroson, Durun, Manqishloq, Xiva, Hazorasp, Kat, Buldumsoz, Pingichka, Bog'obod, Nisoy, Obivard, Chahordeh, Mahna, Chacha, Abulxon va Dehiston kabi shaharlar bo'lgan. Xonlik taxtiga sulola vakillarining eng yoshi ulug'i o'tqazilgan. Bunday taomilning mavjudligi ham ba'zan ayanchli oqibatlarga olib kelganligi haqida asarda bir necha bor qayd etiladi. Chunki, sulola vakillarining hammasi ham boshqaruvchilik qobiliyati ega emas edi.

«Shajarai turk» asarida tashqi siyosatda Eron bilan munosabatlar ko'p o'rinlarda eslatiladi. Buqachaxon hukmroligi davrida shoh Tahmasp xonlikka elchi yuboradi: «Men xong'a o'g'ul bo'layin deytururman. Temurbiy Chingizxon avlodina kuyov bo'ldi ersa, hanuzgacha ani Temur Ko'ragan deytururlar. Men ham Chingizxon avlodina ko'ragan bo'lmoqni ko'nglim izlay turur. To Xunkordek ulug' dushmanim aytqay kim shoh Tahmosib o'zbek podshohining qizin oldi; yaxshi yarashdi»<sup>95</sup>. Bug'achaxonning o'z qizi yo'q edi, shuning uchun u So'fiyonxonning Oysha begi otli qizini unga uzatadi. Oysha begining Ag'ish sulton ismli akasi boshchiligida to'qqiz kishi Kazvinga yuboriladi. Shoh Ag'ish sultonni juda katta ehtirom va tantanalar bilan qarshi oladi. Ag'ish sultonga Xo'jand shahrini beradi, sulton Xo'jandni vafot etgunicha o'ttiz yil davomida boshqaradi. Shuningdek, Bug'achaxonga to'qqizta oltin xisht (xanjar), to'qqizta kumush xisht, to'qqizta tepasi zarbof, quyisi ipakdan tikilgan, to'shaki va barcha buyuumlari oltin va kumushdan bo'lgan chodir, egari va yugani bo'lgan to'qqizta ot, shu bilan birga ming bo'lak ipak

---

<sup>95</sup>Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 128б.

matolar yuboradi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, chingiziylar avlodining obro'si nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki Eronda ham yuqori ekanligi va o'sha davrda ham ahamiyatini yo'qotmaganining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, shoh Ismoil davridagi o'zaro nizolar bu davrga kelib ancha yumshaganligi ham ma'lum bo'ladi.

Avaneshxon davrida Xuroson etagidan to Astrobodgacha bo'lgan yerlar Urganch podsholariga taalluqli bo'lgan. Uning Dinmuhammad, Mahmud va Ali sulton ismli uch o'g'li bo'lgan. Dinmuhammad 19 yoshiga yetganda ham otasi unga hech nima bermaydi. Bu vaqtda Urganchlik yigitlar Xurosonga, qizilboshlar ustiga bosqinchilik natijasida o'ljaga ega bo'lib qaytar edilar. Dinmuhammad otasining ruxsatisiz Astrobod va Mozandaronga yurishgamani shu yigitlar bilan kelishadi. O'zaro kelishmovchiliklar tufayli Dinmuhammadxon Muhammadg'ozini sultonni o'ldiradi. Bu xabarni eshitgan Sultong'ozini Vazirda Ali sultonni o'ldiradi. Avaneshxon bu voqealardan so'ng kengash chaqiradi. Kalxon, Aqatoyxon, akasi So'fiyonxon va Bug'achaxon bundan xabar topgach, Sulton g'ozining kishilari Avaneshxonga xujum qildi deb Vazir ustiga, Avaneshxon kishilari esa Urganchga yurish qiladi. Amnakxonning o'g'illari Urganchda, Elbarsxonning o'g'illari Vazir shahrida kengashdilar. Avaneshxon ko'p marta yarashishni taklif qiladi, ammo aka-ukalari bunga rozi bo'lmaydilar. Amnakxon o'g'illari Vazirning kun chiqish tomonidagi obod Qumkend shahriga boradilar va Sulton g'ozini bilan urushadilar. Avaneshxon urushni borshsitirishiga qaramay, Vazir shahriga kirib boradilar va Elbarsxonning Sulton g'ozini boshliq 16 ta o'g'illarini o'ldirdilar. Aqatoyxon Sulton g'ozining xotini, ikki o'g'li va ikki qizini Buxoroga yuboradi. Shundan so'ng Belikach sulton avlodlari Yangi shahrdan Qumkendga kelgach, bo'lgan voqeadan xabar topadi. Shundan so'ng ular urganch orqali Buxoroga yurishga qaror qiladi<sup>96</sup>.

Bu voqealardan xabar topgan Buxoro xoni Ubaydixon (Ubaydullaxon)

---

<sup>96</sup> Ўша асар, 1992. – 1336.



Buxorodan, Abulxayrxonning o'g'illari ittifoq tuzib, Toshkentdan Baroqxon, Samarqanddan Juvonmardxon, Hisordan Hamza Mahdiyxonning nabiralari Urganch ustiga yurish qiladilar. Abulg'ozixon Ubaydullaxonga qarshi kurashga otlangan Dinmuhammadxon haqida gapirar ekan uning tashabbuskorligini ta'riflab: « “Tangrim jonimni senga topshirdim, tanimni tuproqqa topshurdum” teb turpoqni ko'ylakining yoqasindin qo'ynig'a qo'yub ko'pa berdi-da beklarga qarab aytdi «Men o'ldum agar sizlarning joningiz mendin ortiq bo'lsa, urushg'a bormang, agar mening birlan barobar bo'lsa qolmang», tedi, taqi otlanib yuruy berdi. Barchalari yig'lay-yig'lay Dinmuhammad sultonning ortindan ketdilar»<sup>97</sup>.

Hoji Muhammadxon (1558-1593)xonligi davrida Abdullaxon II xonlik hududiga yurish qiladi. «Shajarai turk»da Abdullaxon II yurishi uchun uch sabab ko'rsatiladi. Birinchidan, Abdullaxon IIning ovozi bu davrda Rum hukmdorigacha boradi va u Abdullaxon oldiga Payola podshoh degan kishini elchi qilib yuboradi va bir tomondan u va bir tomondan Abdullaxon bo'lib shayx o'g'lini (fors shohi) qirib tashlashni taklif qiladi. Payola podshohi ehtirom bilan kuzatdi. U bu yerga Hindiston orqali uch yilda yetib kelgan edi. Shundan so'ng u Urganch va undan turkmanga borib Shirvon orqali borsam Istambulgacha to'rt oylik yo'l deydi. Yurishning ikkinchi sababi ham mana shudir. Chunki, bu davrda Shirvon Rum hukmdori mustamlakasi bo'lib, Movarounnahrning hojilari va savdogarlari qizilboshlarning yeridan o'tmaslik uchun Urganch orqali Mang'ishloqqa o'tib, bu yerdan Shirvon kemalariga chiqadilar. Urganchga kelgan Payola sultonning barcha mollarini Hoji Muhammadxonning o'g'li Ibrohim sulton olib qo'yadi. Bundan g'azablangan Abdullaxon uni qayta Mang'ishloqqa yuborib, Shirvon kemasiga o'tirishini ta'minlaydi. Urganchga yurish qilishidan bir yil oldin Hoji Qo'tas degan kishi ko'p hojilarga va karvonga boshchilik qilib Xivaga keladi. Po'lod sultonning

---

<sup>97</sup> Ўша асар, 1992. – 1356.

to'ng'ich o'g'li Boba sulton ularning barcha mollarini tortib oladi va o'zlarini piyoda Buxoroga quvib yubordi. Hoji Qo'tas Abdullaxonga arz qiladi, bunga javoban Abdullaxon «Hoji Muhammadxon men kabi podshoh, navkarim emas» deydi. Shunda Hoji Qo'tas: «tangla tangri qozi bo'lib, payg'ambar shifoatchi bo'lganda, seni tutub yukunurman-da, ayturman «Xudoyim Hoji Muhammadxonning kuchi Abdullaxonning bir navkarindin ortuq ermas erdi. Abdullaxonning kuchi yotar erdi, erindi. Taqi borib mening haqqimni olib bermadi» derman. Xon aytibdi hoji bir ulug' yerdin tuttung. Xo'b-xo'b, qo'limizdan kelsa qilali»<sup>98</sup> tebdi.

Yurishning keyingi sababi bu davrga kelib Avaneshton nabiralarning barchasi vafot etib, Abulxonning lo'lidan tug'ilgan bir noma'lum o'g'li qolgan edi. U Marv va Obivardni boshqargan. Hoji Muhammadxon ukalarining o'g'illari har yili Marvga yurish qilib unga ko'p ozor beradilar. Nurumxon bunga chidolmay Abdullaxon oldiga xutbani Hoji Muhammadxon nomiga emas Abdullaxon II nomiga o'qisam Marvni iyenga berar deb keladi. Shundan so'ng Abdullaxon II hujum boshlab Marv, Obivard, Nisoy va Bog'obodni egallaydi. Hoji Muhammadxon qo'lida Xurosonda Durunda boshqa viloyat qolmaydi<sup>99</sup>.

Arab Muhammadxon davrida kurashlar yanada avj olgan. Abulg'ozi Xorazm xonligining o'ziga tegishli bir bo'lagini boshqarayotgan dastlabki yillardan boshlab, kuchli markazlashgan feodal davlati tarafdori ekanligini namoyish qiladi. Xisrav sulton, Somi sultonlarning Arabmuhammad davlatini fitna yo'li bilan egallashga intilishlarini qattiq qoralaydi. Otasining faqat fitna boshliqlarinigina o'ldirib, ularning sheriklari gunohlarini kechishi bilan kelisha olmaydi. «Xonning fe'li kengligi va gunohkorlarni afv qilg'ani, otamiz xonning boshina va barcha yurt xalqining boshina ko'rguliklar keltirur»<sup>100</sup>, - hisoblaydi. Yurtdagi notinchliklarda, qavm-qarindosh, ota-bola, aka-ukalarning toj talashib,

---

<sup>98</sup> Ўша асар, 1516.

<sup>99</sup> Ўша асар, 1516.

<sup>100</sup> Ўша асар, 1606.

o'zaro urushlaridan bezor bo'lgan Abulg'ozi feodalizmning ilk rivojlanish davrlarini haqida shunday yozadi:

«Qadimiy xalq bu zamonning xalqindin yaxshi erdi. Agar el va xalq yig'yilib, kishi o'ltura bilur bo'lsa va yo gunohkor so'ray bilur bo'lsa va yo bir ish boshqarmoq qo'lindin kelur bo'lsa, ne uchun bir mardg'a podshoh ot qo'yub, evining to'rmida o'lturtub, barcha xalq ixtiyorlarin aning qo'lina beratururlar»<sup>101</sup>.

Bu o'rinda cheksiz huquqqa ega bo'lgan hokimi mutlaq haqidagi barcha elu yurtlarning «bir mard podshoh»ga bo'ysunishi to'g'risidagi orzular, ya'ni mamlakatning kichik-kichik xonliklarga bo'linib ketishidan norozilik, e'tiroz ko'rinib turibdi. Shu boisdan ham Abulg'ozi o'z otasi tirikligidayoq toj-taxt talashib, xonlikni parchalab yuborayotgan akalari Xabash va Elbars sultonlarga va ularning niqoblangan homiylari Qurbon hoji va Chin hojilarni qoralaydi. Otasi Arabmuhammadning isyon ko'targan o'g'illari yoniga Qurbon hojini yuborib, u keltirgan soxta xabarga ishonganidan norozi bo'lgan Abulg'ozi:

«... Men ham otamni ko'rayin teb eshikka borib erdim, Hoji ham eshikka keldi, xon qatiga birga kirduk. Xon: «Ko'rgan-eshitganingni ayt, hoji»,— tedilar. Ne aytayin xonim, borg'anima pushaymoi bo'ldum. Yuqorisi Dorug'an ota, quynii Baqirg'an otag'acha o'lturg'an o'zbek o'g'lonlarining qatig'a yig'ilib turur... Men bir og'iz otangiz chorulata yubordn teb aytib erdim, ming yerdin qichqurg'an ovoz keldi... Xonim ish yomon bo'ldi. O'zung bilursen, mening senga jonim kuyganda, o'zgalarning to'kinging etaki kuymas. Emdi Xevaqqa ketako'r. Bu zolimlardin yiroq bo'l. Elimiz, xalqimiz bir maslahat qilurmiz»<sup>102</sup>,— deb aytgan gaplariga ishonganidan Abulg'ozi g'azablanadi. Vaholanki, asarda ta'kidalanishicha, «O'sha vaqtlarda xalq xondin (Arab Muhammadxon) andag' qo'rqar edilarkim, ... Xon ko'runushga chiqib xalqg'a aytsa, ini va o'g'lunguzni Habash qatig'a yubormang, agar har kim yuborsa mendin yaxshilik umid qilmasun, mening bu so'zumni bir-

---

<sup>101</sup>Ўша асар, 1616.

<sup>102</sup>Ўша асар, - 1676.

biringizga ayting teb hukm qilsa, kishi yuborib shahrlarda va bozorlarda ushbu so'zni aytib jar chorlatsa, bir kishining haddi yo'q erdi, evindin tashqari chiqa bilgay». <sup>103</sup>

Asfandiyor sulton bilan Abulg'ozixon birgalashib qo'shin tortib, Elbars sultonning ustiga bostirib boradilar va isyonchi ustidan g'alaba qozonadilar. Mag'lubiyatga uchragan Elbars sulton besh-olti kishi bilan qirg'a chiqib ketadi. Ana shundan keyingi voqealar, «Shajarai turk»da quyidagicha tasvirlanadi: «... Evini va elini chobduq. (Elbars sultonning oila a'zolari va uning yaqin odamlari ko'zda tutiladi.) Barcha sultonlar xon qatig'a yig'ilduk. Otamni ko'rayin teb keldum. Urduda yakka namozshom o'qub turub erdilar. Namozdin forig' bo'lg'andii so'ng yaqinlarig'a kelib o'lturdim-da, aytdum: «Elbars sulton besh-olti kishi birlan qirg'a chiqib ketdi. Emdi ne fikr qilasiz?» Aytdilar: «Sening ko'nglingga ne kela turur?» Men aytdum: «Asfandiyor sulton birlan faqirg'a xukm qilung... Elbars sultonni o'ldurali, andin so'ng qolgan besh o'g'liigizshitg hech qaysisi sizning hukmingizga tajovuz qilmaslar» <sup>104</sup>. Arab Muhammadxon bu masalada Chin hoji bilan maslahatlashadi. Habash va Elbarslar tomonida bo'lgan Chin hoji «O'g'lonlaringizning birisin o'ltursangiz, qolg'anining hech qaysisi sizga inonmas» <sup>105</sup> deydi.

Bu o'rinda Abulg'ozining dunyoqarashi ochiq-oydin ifodalangan. U yirik davlatni parchalanib ketishdan saqlab qolishga intiladi, otasi va akalarini shunga undaydi. Lekin otasi Arabmuhammad o'g'li Abulg'ozining taklif-mulohazalarinn qabul qilmaydi. Abulg'ozi haqiqatni otasi yuziga antib solishdan ham qaytmaydi: «... Sizni tutub, evga solib, molingnzni olg'andin so'ng, emdi ne qoldi? Tongla mundin yomonki ishlar bo'lur, pushaymon qilursiz»,— deydi.

Biz Abulg'ozining yuqoridagi so'zlaridan uning o'sha davr tarixiy

---

<sup>103</sup>Ўша асар, – 161б.

<sup>104</sup>Ўша асар, – 163б.

<sup>105</sup>Ўша асар, – 163б.

voqealarinng shohidi, faol ishgirokchisi ekanligini bilib olamiz. Haqiqatan ham, Xabash va Elbarslar, Abulg'ozini to'g'ri ta'kidlaganidek, yomon ishlar qila boshlaydilar.

Arabmuhammad jangda yengiladi, qamoqqa olinadi, farzandlari har tomonga tarqab ketadi. Abulg'ozini Buxoroga, Asfandiyor sulton Makkaga ketishga majbur bo'ladi. Keyinchalik Xabash va Elbars sultonlar o'z otasining ko'ziga mil tortish bilan hamqanoatlanmay, uni o'g'li va nabiralari — Asfandiyorxonning ikki o'g'li bilan Xorazmshoh ismli ukasini qatl qiladilar.

Asfandiyorxon davrida ham o'zaro qirg'in urushlar to'xtamaydi. Asfandiyorxon taxtga turkmanlar yordamida chiqqach, xonlikda ularning mavqeyini oshirishga harakat qiladi, hamda o'zbeklarga zulm qila boshlaydi, ularni shafqatsizlik bilan qiradi. Ayniqsa, uyg'urlar va naymanlar qattiq jabr ko'radilar: «... Asfandiyorxon uyg'ur, naymanni qirdi. Andin so'ng barcha o'zbek birlan yov bo'ldi. O'zbek uch bo'lindi. Birisi mang'it, birisi qozoq, va birisi Movarounnahrqa ketdi»<sup>106</sup>.

Bundan keyingi kurashlar aka-ukalar Asfandiyorxon, Abulg'ozini va Sharifmuhammad xonlar o'rtasida yuz beradi. Chunki toj-taxtga ega bo'lgan Asfandiyorxon ham o'zidan oldingi saltanat an'anasiga amal qilib, Xiva, Xazorasp va Katni o'zi oladi. Urganchni Abulg'ozixoniga, Vazirni Sharifmuhammadxoniga in'om qiladi. Asfandiyorxonning turkman qabilalariga tayanib saltanatni boshqarganini kurgan Abulg'ozixon o'zbek qabilalariga tayanib, xonlikni butunlay qo'lga kiritish siyosatini yurgizadi.

Asfandiyorxon barcha o'zbeklarning Buxoroga ko'chib ketishlaridan hayiqib, ularning taklifini qabul qilishga majbur bo'ladi. Bu muvaffaqiyatdan mag'rurlanib ketgan o'zbek qabilalarining beklari Abulg'ozining tadbirlariga ko'nmay, uni tezroq taxtga ko'tarishga shoshiladilar. «... Bu kecha to'rt yoqg'a kishi yuborali. Tong otkanda ming

---

<sup>106</sup>Ўша асар, – 1666.

kishi darvozada hozir bo'lsun. Muhammad Husaynbek boshliq bu turkmanni qiroli. Taqi, Xevaqaq o'lturg'an turkmanni chopali. Bu qish Xevaqaqning qalxasiin qabab stali. Bahor olurmiz»,— deb shovqin solishadi.

Abulg'ozining «... turkmanni qira bilmassiz. Eshitib qochar. Qishina turkmanning barchasi Xevaqaq ustida turur. Ani ham ola bilmassiz. Xevaqaq borib yotsangiz evingiz egasiz bo'lur. Qalmuq kelur. Taqi o'g'lon o'shoqingizni olur ketar», deb ularni bu yo'ldan qaytarishga intiladi va o'zining quyidagi tadbirlarini ular o'rtasiga tashlaydi:

«... Muhammad Husayn boshliq turkmanlarni yaxshi siylab yuborali. Sharif Muhammad kuyuk qal'ada qishlasun. O'zbekning barchasini buz to'yg'andin so'ng ko'churib Sharif Muhammad birlan bizning oramizg'a kelturali. Har besh yuz evli va ming evli bir jib solib qishlasun... Bir yerg'a yig'ilali. Ichimizda oz bo'lsa besh-olti yuz turkman bo'lur. Avval ani qirali. Taqi Xevaqaq ustina yurali, bu vaqtda Abulxon va Manqishloqning turkmani oshliq olmoq uchun Xevaqaqg'a kelib, barchasi enlik evina ketar. Bahor qo'y-qo'zilar uchun Xevaqaqda o't bo'lmas... Sart eki ekmoq uchun kendli kendina ketar. Xevaqaq ichinda Asfandiyorxon qatinda ko'p bo'lsa yuz, oz bo'lsa ellik kishi qolur. G'ofil borib, darvozaning og'zina tusholi»<sup>107</sup> — deb g'alaba qozonish yo'lini ko'rsatsa ham qabul qilishmaydi. «O'tlanmoqni munosib ko'rub, Xevaqaq ustina yurdilar. Yomon ish qildingiz, yurtni buzingiz teb, ayta-ayta ikki kundai so'ng keyinlarindin bordum. Xikaiik ariqining labnnda Toshko'prik tegan, yerda borib tushduk. Turkmanning och-ariqin topib o'lturdik», deb afsuslanadi.

Biroq g'alabaga erisha olmaydilar. Asfandiyorxon bilan bo'lgan urushda yengiladilar. Abulg'oz mag'lubiyatga uchragach, madad umidida avval qozoq xoni Tursunxon, so'ngra Buxoro xoni Imomqulixon dargohlarida payt poylab yurishga majbur bo'ladi. U o'zbek qabilalarining yordamida yana o'z yurtiga qaytadi. Yana o'zbek-turkman bo'lib urushadilar.

«Andin so'ng men besh-olti kishi birlan Xevaqaq keldim. Sharif Muhammad mendan ikki oydin so'ng Hazorasbda Asfandiyorxon qatig'a keldi. Ul ikkisi bir

---

<sup>107</sup>Ўша асар, – 1726.

bo'ldi. Taqi mening birlan urushdilar. Men g'olib keldim, sulh qildilar. Olti oydin so'ng Xevaqa g'ofil o'lturub erdim, ikkisi nlg'ab kelib darvozag'a yaqnn tushdi. Tashqarida o'lturg'on turkmanning qora-yomoni Asfandiyorxon g'a yig'ildi. Ul besh ming kishi bo'ldi. Mening qatimda olti yuz kishi bo'ldi... Bir et peshim urush bo'ldi, shul vaqtda jov qochti»<sup>108</sup>.

Xullas, aka-uka o'rtasidagi toj-taxt talashib, qon kechilgan urushlarda Abulg'ozixon yengilib, Asfandiyor tomonidan Eronga surgun qilinadi. Iroqning Isfahon shahrida o'n yil nazorat ostida saqlanadi. Biroq, bu o'n yil Abulg'ozi uchun, uning kelajagi uchun nihoyatda foydali bo'lib chiqadi. U garchi saltanat boshqarishdan mahrum etilgan bo'lsa ham, avvalgi o'n yilda, ya'ni olti yoshidan o'n olti yoshiga qadar olgan bilimining kamini to'ldiradi. Surgundaligida olgan bilimlari uning yetuk shaxs, ijodkor bo'lib yetishuviga zamin bo'ladi<sup>109</sup>.

Abulg'ozi o'n yildan so'ng o'z tayyorgarligini me'yoriga yetgan hisoblab, o'n birinchi yil surgundan qochadi va bir qancha qiyinchiliklar bilan qolmiq xonining yordamida o'z yurtiga yetib keladi:

«... Andii ketib Manqishloq bordim. Ul paqtda Man- qishloq turkmani buzulib yetti yuz evlik qolib, ul ham Qolmuqg'a tobi' bo'lub turub erdi.

Qolmuqnnng nodshohi manim kelganimni eshitib, yaxshi knshilarnni yuborib mani olib bordi-da, bnr yil saqlab Urganchda o'lturg'an o'z xalqimiz ichina yubordi» («Shajarai turk», 532-533- betlar).

Bundan so'ng Abulg'ozi siyosiy faoliyatining yangi davri boshlanadi. Bu 1643-1663 yillarni o'z ichiga oladi. Abulg'ozi shu vaqtga qadar (u ham bo'lsa, o'n olti yoshidan boshlab, to Asfandiyorxon tomonidan Eronga surgun qilinganiga qadar) otasi va akasining vassali sifatida mamlakatning bir bo'lagi — o'ziga in'om qilingan hududda saltanat ishlarini boshqarib, tajriba to'plagan edi. U qirq bir yoshida, avvalo, Orol hokimligini, so'ngra butunlay Xiva xonligi boshqarish ishlarini qo'lga kiritib, yigirma yil davomida — oltmish bir yoshigacha xonlik qiladi.

---

<sup>108</sup>Ўша асар, – 174-175б.

<sup>109</sup> Худойназаров Х. «Шажарай турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: 1993. – 39б.

Biroq, Orol hokimligiga ko'tarilgach; xonlikni butunlay qo'lga kiritish osoy bo'lmadi. Bu haqda «Shajarai turk»da shunday deyiladi: «Ul vaqtda Imomqulixon o'lub, inisi Nodirmuhammadxon akasi Imomqulixoi yeriga xon bo'lib erdi. Biz turkmandin aqamizning o'g'lonlari va viloyatini tiladuk, bermadi. Taqi Nodirmuhammadxonning otina xuda o'qub Ashraf sultonni yubordi. Biz yov bo'lub Xevaqni ikki marta chopduk. Andin so'ng Nodirmuhammadxon Xevaq bilan Hazorasbga hokim yubordi. Asfandiyorxonning o'g'lun va qizin va ko'chin ko'churub olib borib Qarshida o'lturtdi. Xevaq bilan Hazorasbning amalotini Asfandiyorxon kimga bergan bo'lsa, Nodir Muhammadxonning kelgan ilgor beklari shul kishidan ayurmadi...»<sup>110</sup>

Tarixshunos olim va shoir Shermuhammad Munis «Firdavsul-iqbol» asarida yozshnicha, Abulg'ozixon davlat tepasiga kelgandan so'ng ko'p kishilarga o'z yonidam o'rin va amal tayin etgan. Abulg'ozixon xonlikni boshqarishda dastavval xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo, turkman yo'l boshchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularning yer - suvlari, mol - mulklari musodara qilinishi, o'zlari mamlakat ichkarisiga surgun qilindi.

Xonlikdagi barcha lavozimlarga o'zbek urug'ularining boshliqlari qo'yildi. Abulg'ozixon ma'muriy isloqot o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimida o'zbek urug'larining mavqeyi ortib bordi hamda ulardan 360 nafar vakil xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarildi. Xon yangi amaldorlar orasidan eng obro'li 32 nafarini o'z yoniga oldi. Munis ta'biri bilan aytganda, «andoqkim ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqib, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt parvonachi, ikki oko, ikki arbob, to'rt chig'atoyi inoki va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi, bu ikkovi o'rinsiz xon xuzurida oyoq ustida turadilar»<sup>111</sup>.

Uning mamlakatni boshqaruvida muhim islohot o'tkazib o'zbek urug'larini to'rt guruhga bo'ldi: birinchi guruhga uyg'ur-naymanlar bo'lib, do'rmon va

---

<sup>110</sup> Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 179б.

<sup>111</sup> Ўша асар, 52б.



yuzming jamoasi uyg'urlarga, hamda payg'ambar avlodi shayx va bo'roqlar naymonlarga qo'shildilar; nukuz-mang'itlar ham bir guruhga kiritilib, kanagas va xo'ja ellari ularga biriktirildi; keyingi guruhlarga kang'li qipchoq urug'lari kiritilib, ularga o'n to'rt urug' qo'shiladi. Birlashmalarga inoqlar boshchilik qilganlar. Xon ana shu inoqlar orqali qabilaga tegishli masalalarni hal qilgan.

Bu urug'larning barchasiga Darg'ondan Orol dengizigacha, Amudaryoning har ikkala tomonidan yer ajratib beriladi. Shu tarzda aholi Yangi Urganch istehkomiga ko'chiriladi. Xon 1646-yilda janubi-g'arbda qal'a bunyod qildiradi, hamda Eski Urganch xarobalari shu davrdan boshlab Ko'hna Urganch deb atala boshlanadi. Munisning ma'lumotiga ko'ra, bu yer «bag'oyat ma'mur va obodon va Xorazmning ulug' savdo xonasidur»<sup>112</sup>. Akademik olim Ya.G'ulomov Abulg'ozixon hukmronlik qilgan davrni tavsiflab xonning tashkilotchiligi va tashabbuskorligi haqida shunday deydi: «Garchi tarixda Abulg'ozixon hukmronlik qilgan davrda uning nomiga qo'yilgan kanalni uchratmasakda, Xivani egallagan va Janubiy Xorazmni obod qilishda katta tashabbus ko'rsatgan Abulg'ozixon tarixda qoladi».

Ichki siyosatda Abulg'ozixon mamlakat yaxlitligini saqlash maqsadida 1646 - 1653 yillari u Tajan, Bomibaurma (Qizil arvonning janubiy-sharqiy tarafida joylashgan manzilgoh), Atrok va Jurjon turkmanlari bilan urush olib bordi, 1655 - 1662 yillari o'lkaga vaqt-vaqti bilan boqin qilib turgan Yoyiq (Ural)lik o'ris qozoqlari, qalmiqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurash olib bordi. 1663 - 1664 yillari bir necha marta Buxoro ustiga yurish qiladi, hamda xonlik sarhadlarini kengaytirishga xarakat qildi.

---

<sup>112</sup>Шермухаммад Мунис. Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол. Т.:2010. – 526.

## XULOSA

Shayboniylar hukmronligi davrida, XVI asrda Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik kuchaya boshlaydi. Buning ijtimoiy - iqtisodiy hamda siyosiy sabablari quyidagicha bo'lgan:

Chunonchi, Shanboniyxon hukmronligidan boshlab 100 yil davom etgan shayboniylar davlati tipik feodal davlat edi. Davlatning boshida cheksiz huquqqa ega bo'lgan xon o'tirgan, butun viloyatlar shu xonadon a'zolariga, sultonlarga bo'lib berilgan, viloyat hukmronlari esa maxsus askariy guruhga, urug' va qabilalarning yuqori doiralariga, ruhoniylarga suyanganlar. Masalan, XVI asrning 40-yillarida Samarkandda Abdulatif, Buxoroda Abdulaziz, Toshkentda Baroqxon, Karmana va Miyonqolda Iskandar sulton, Balxda Pirmuhammadxon kabilar hukmronlik qilganlar. Bularning har biri o'zini mustaqil hukmdor hisoblab, bir-birlari bilan to'xtovsiz urushib turar edi. Ular bosh hukmdorga (xonga) nisbatan vassallik munosabatida bo'lishlari kerak bo'lsa ham, lekin ular ko'pincha xon hukumatini tanishni istamas va unga qarshi kurash olib borar edilar.

Bu feodal urushlarning butun og'irligi, jabr-jafosi, dahshati mehnatkash xalq boshiga tushib, uni qon qaqshatgan edi. Abdulmo'minning otasi Abdullaxonning Urganch ustiga uch marta qo'shin tortib borishi yurtga xarobalik keltiradi. XIV asrda boshlangan feodal tarqoqlik XVII asrga kelib yanada kuchaya boshlaydi. Abdullaxon va uning o'g'li Abdulmo'minxonlar davrida Xorazm juda ko'p martalab o'zaro qirg'in urushlar girdobida qolib, tobora qashshoqlasha va xonavayron bo'la bordi. Talonchilikdan tashqari, soliqlar haddan oshirildi. Abulg'ozining otasi Arabmuhammadxon taxtga chiqqach ham Xiva xonligida o'zaro qirgin urushlar davom etib turdi. Bir tomondan, Eron va Buxoro hukmronlarining bosqinchiligi, ikkinchi tomondan, o'zaro taqsimlab olingan qavm-qarindosh bekliklar o'rtasidagi tinimsiz fojiali kurashlar uzluksiz davom etdi.

Bu davr muhitini xonlikda mana shunday keskin siyosiy vaziyat hukm surgan vaqtda yashagan, hamda bolalik va o'smirlik yillaridan uzoq

va yaqin qarindoshlari o'rtasidagi kurashlarning guvohi, hamda ishtirokchisi bo'lgan Abulg'ozi Bahodirxon boshqa zamondoshlaridan ko'ra yaxshiroq tushunardi. Hukmdor va olim sifatida u mamlakatdagi murakkab vaziyatdan chiqishning yagona yo'li o'tgan tarixiy jarayonlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida islohotlar ishlab chiqish va amalga oshirish ekanini yaxshi tushunar edi. Bu holat uni mamlakat tarixini o'rganish va tarixiy asar yozishga da'vat qildi. Zero, u ajdodlarining beparvoliklari tufayli yozilmay qolgan tarixning yozilishi zarurligini birinchilardan bo'lib angladi. Uning «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlari Xorazm va umuman O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan asarlar hisoblanadi.

Muallif «Shajarai turk» asarida Xiva xonligi tarixining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, hamda madaniy jihatlarining barcha jabhalarini yoritishga intilgan. Jumladan, **ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan:**

- Xiva xonligida yashovchi xalqning turmushi, yashash sharoiti, kundalik mashg'ulotlari bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, xonlik aholisining etnik, madaniy va iqtisodiy munosabatlarda uchta yirik guruhga bo'linganligi;

- Xorazmda qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan shahar va qishloqlar aholisi asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi;

- Turkman qabilalari xonlikning g'arbiy va janubiy qismlarida yashaganligi va asosan chorvachilik bilan shug'ullanganligi;

- Elbarsxon bilan Xorazmga ko'chib kelgan o'zbeklarning ko'chmanchi tarzda hayot kechirganligi va ular tarkibidagi urug' va qabilalar haqida;

- Xonlikda ko'plab soliq turlarining mavjud bo'lganligi, ularning miqdori va yig'ib olinishi;

- Amudaryo o'zanining o'zgarishi munosabati bilan xonlik aholisi hayotidagi ijtimoiy o'zgarishlar to'g'risidagi qiziqarli ma'lumotlar

keltirilgan.

**Xonlikdagi siyosiy munosabatlardan:**

- Xonlikni boshqargan hukmdorlarning davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosati;

- Feodal munosabatlar, o'zaro urushlar va ularning oqibatlari, Buxoro xonligi bilan siyosiy munosabatlar, Buxoro xonlari Ubaydullaxon, hamda Abdullaxon II larning xonlikka yurishlarining asosiy sabablari sanab o'tilgan;

- Arab Muhammadxon davridagi siyosiy munosabatlar: ota va o'g'illar o'rtasidagi o'zaro qirg'inlar tafsilotlari;

- Bu davrda aholi o'rtasidagi diniy munosabatlar, hamda din vakillarining siyosiy hayotga aralashuvi masalasi;

- Abulg'ozixon davrida o'tkazilgan ma'muriy islohotlar va davlat boshqaruv tizimini yangitdan tashkil etilishining mohiyati kabilar haqida batafsil yoritib berilgan.

**Madaniy hayotda:**

- Xonlikning madaniy hayotida Xiva, Hazorasp, Urganch, Vazir kabi shaharlarining o'rni;

- Eron bilan munosabatlar, jumladan Bug'achaxon davrida shoh Tahmasp bilan qarindoshlik munosabatlarining o'rnatilganligi, hamda Erondan xonlikka ko'plab sovg'alar yuborilganligi;

- Bu davrdagi savdo munosabatlari, jumladan Buxoro xonligi va ruslar bilan savdo aloqalari, shuningdek savdo karvonlarining Mang'ishloq orqali o'tganligi haqidagi ahamiyatga molik ma'lumotlar kabi masalalar yoritilgan.

Yuqoridagilardan Abulg'ozini Bahodirxon va «Shajarai turk» asarining Xiva xonligi tarixini yoritishdagi ahamiyati, shuningdek Xorazm madaniyati tarixidagi o'rni haqida shunday xulosa qilishimiz mumkin:

1. Muallif «Shajarai turk» asarini yaratish jarayonida turli uydirma va soxtaliklarga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Shu ma'noda, o'zigacha

bo'lgan davr tarixini yozishda bir necha o'nlab tarixiy asarlarni o'rganib, faqat tarixiy haqiqat deb bilgan hodisalarnigina asarga kiritadi. Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari bunda alohida ta'kidlab o'tiladi.

2. Abulg'ozixon asarning asosiy qismi, ya'ni o'zi yashagan davr tarixini yozishda qarindoshlar o'rtasidagi kurashlarni ham, o'zining surgunlikdagi davrlarini ham g'alaba va mag'lubiyatlarini ham ochiq bayon etishga harakat qiladi. Bu hijatdan, olimlar uni Zahiriddin Muhammad Boburga qiyoslaydilar. Chunki, Abulg'ozixon Bahodirxon ham avvalo hukmdor edi. Bu esa, unga mutlaq ijod erkinligi uchun imkon yaratdi. U saroy rasmiy arboblarga itoat etishi, qat'iy shakllangan an'anaviy uslub iskanjasida ijod etishi shart bo'lmagan. Uning asarni yozishdan asosiy maqsadi, boshqa tarixchilardan farqli o'laroq ma'lum bir hukmdor davrini ulug'lash emas, balki tarixning yozilmay qolgan qismini to'ldirib keyingi avlodga yetkazishdan iborat edi. Shuning uchun ham, muallif tarixiy voqeya hodisalarni sodda, tushunarli, ixcham til birliklari orqali bayon etadi. Shuningdek, «Boburnoma» Andijon shevasida yozilgan bo'lsa, «Shajarai turk» Xorazm shevasida yozildi. Bu haqida uning ilmiy faoliyati bilan tanishgan venger sharqshunos olimi G.Vamberi: «Abulg'ozixon Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi... Jahon uning «Shajarai turka asari uchun undan minnatdordir»<sup>113</sup> degan edi.

3. Shuningdek, o'zining «Shajarai turk» asari bilan Abulg'ozixon Xorazm tarixnavislik maktabiga asos soldi. Keyingi xorazmlik ijodkorlar Munis, Ogahiy va Bayoniylar Abulg'ozixonning ilg'or an'alarini rivojlantirib, yangi tarix asarlarini yaratdilar. XIX asrda Munis tomonidan boshlanib, Ogahiy tomonidan yozib tamomlangan «Firdavs ul-iqbol» shubhasiz, Abulg'ozixon boshlagan an'alar ta'sirida, undan foydalanib yozilgan tarixiy asar hisoblanadi. Zero bu tarixchilar o'zlarigacha bo'lgan tarixni bayon etishda ko'proq Abulg'ozixon Bahodirxon asarlariga tayanganlar.

---

<sup>113</sup> Вамбери Г.А. История Бухары или Маварауннагра. Том I. М.: 1964, 1156.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тошкент: «Ўзбекистон», 1997.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: «Ўзбекистон» 1998.
3. Каримов И.А. Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 133 б.
4. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент:«Ўзбекистон», 2000. – 32 б.
5. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: «Маънавият», 2008.

### 2. Tarixiy manbalar:

7. Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 167б.
8. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. Самарқанд: 1995. – 72б.
9. Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. Тошкент:1994.-Б. 49.
- 10.Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. Тошкент:«Ўқитувчи», 1997.
- 11.Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560гг. Английские путешествие в Московском государстве в XVI веке. Перевод с английского Л.Готье. Л.:1932.
- 12.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллахўжаевалар таъдил қилишган. - Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
- 13.Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Т.:1961. – 321б.
- 14.Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1978

- 15.Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980.
- 16.Муҳаммадризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи Н.Жабборов. Тошкент: «Ўзбекистон», 2009. – 238б.
- 17.Шермуҳаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент:«Ўқитувчи», 2010. – 381б.
18. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Масъул муҳаррир: Б. Эшпўлатов. Тошкент: «Шарқ», 1997
19. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. Нашрга тайёрловчи: Б.Аҳмедов. Тошкент: «Шарқ», 1999.

### **3. Имиy adabiyotlar:**

20. Абдурасулов А. Хива. Тарихий-этнографик очерклар.Тошкент: 1997.
- 21.Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. II китоб. Тошкент: «Ўқитувчи», 1980. – 344б.
- 22.Абдуллаева М.Д. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий типологик таҳлили. Авт-т, ф.ф.номз. Самарқанд: 2004. -22б.
- 23.Агзамова Г.А. XVI-XIX аср биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти. Тарих фан.ном.дисс. Т.: 2000.
- 24.Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент:«Шарқ», 2001.
- 25.Аллаева Н.А. Взаимосвязи Хивинского ханства с Ираном в XVI-XVII вв. Авт-т канд.ист. наук. Тошкент: 2007. – 30с.
- 26.Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар.Тошкент: «Ўқитувчи», 1994.
27. Аҳмедов Б.А. Кўчманчи ўзбеклар тарихи. Тошкент: 1965.
28. Бобожонов Д., Абдурасулов М. Фирдавсмонанд шаҳар. Хива: 2008.
- 29.Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. СПб., 1914.
- 30.Бартольд В.В.Сочинение.ЧI. Москва: 1963.
- 31.Вамбери Х. БухороёхудМовароуннаҳртарихи. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 91б.

32. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2012.
33. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. Москва: 1958.
34. Иванов С.И. родословное дерево тюрок Абулгазихана. Тошкент: 1969.
35. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент: Ўздавнашр, 1959.
36. Лунин Б.В. История Хорезма с древнейших времен до наших дней. Тошкент: «Фан», 1976.
37. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. Тошкент: «Ўқитувчи», 1963.
38. Маънавият юлдузлари. Муаллифлар жамоаси. Тошкент: «Маънавият», 2001.
39. Матниёзов Н., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданияти тарихида Хоразм. Урганч: 1999. – 178б.
40. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
41. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960.
42. Рахманова Ю.М. Общественно-политическая жизнь города Хивы в XVI- начале XX века. Авт-т дисс. канд. ист. наук. Тошкент: 2009. – 46б.
43. Рахманова Ю.М. Хива шаҳри Абулғози Баҳодирхон ҳукмронлиги даврида. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Урганч: 2006. – 8-9б.
44. Семенов А. А. Собрание Восточных рукописей , том I. Тошкент: 1952.
45. Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқларининг тарихшунослигидан лавҳалар. Тошкент: 1993.
46. Хасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. Тошкент: 1996.
47. Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. -Т.: 2001.



48. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. Илмий-назарий анжуман материаллари. Т.: 1997.
49. Хива – минг гумбаз шаҳри. Масъул муҳаррир: А.Азизхўжаев Т.: «Шарқ», 1997. – 108б.
50. Хоразм тарихи. I жилд. Муаллифлар жамоаси. Урганч, 1997.
51. Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. Тошкент: 2007.
52. Худойназаров Ҳ. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Тошкент: «Ўқитувчи», 1993.
53. Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Тошкент: «Ўзбекистон», 1994.
54. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент: «Фан», 1964. – 436б.
55. Толстов С.П. Древний Хорезм. Москва: 1948.
56. Юнусов М. Барҳаётанъаналар. Тошкент: 1969.
57. Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари. Муаллифлар жамоаси. Тошкент: 2001.
58. Ўзбекистон тарихи. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир А.С.Сағдуллаев. Тошкент: «Ўқитувчи», 1997.
59. Ғаффоров Ш.С., Нарманов Ф.А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Услубий кўрсатма. Самарқанд: СамДУ нашр., 2013. -75.
60. G'afforov Sh.S. va b. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. Samarqand: SamDU nashr., 2011. – 203b.
61. Ғуломов Я. “Хоразмнинг суғорилиш тарихи” . – Т.:1959.
62. Гулямов Я. Памятники города Хивы. Тошкент: «Фан», 1941.

#### **4. Gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar:**

63. Абдуллаева М.Д. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий типологик таҳлили.// Ҳозирги давр тил ва адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. – 33-38б.

64. Абдуллаева М.Д. Бобур ва Абулғози. // Мулоқот. Тошкент: 2003. 33-34б.
65. Агзамова Г.А. Хиванинг хонлик пойтахтига айланишига доир айрим маълумотлар. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т.: 1997. №6-7. – 84-87б.
66. Аллаева Н.А. Хива хонлиги ва Эрон ўртасида савдо алоқалари тарихидан. // Ўзбекистон тарихи. Тошкент: 2007. № 1.
67. Аллаева Н.А. Абулғозихон хақида яна бир сўз. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2006. №3
68. Матякубова М., Абдуллаев Ў. Хоразмда шажаравий тарихнавислик мактаби. Турон тарихи. –Т.: 2005.
69. Матякубова М. XVI асрда Хива хонлиги. Маърифат ёғдуси. – Урганч. 2007.
70. Қодиров Р. Алимова Р. Аждодларимиз ҳикояси. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. Тошкент: №17, 24- апрел.